



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

# VATANPARVAR



**VATANNI HIMOYA QILISHGA  
DOIM TAYYOR TUR!**



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING  
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN  
[WWW.MV-VATANPARVAR.UZ](http://WWW.MV-VATANPARVAR.UZ)

2026-YIL 17-APREL  
**№16 (3182)**



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

# YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,

Bugungi notinch dunyo manzaralariga nazar solar ekanmiz, kundan kunga avj olayotgan harbiy mojarolar, geosiyosiy ziddiyatlar va qurolli to'qnashuvlar har qanday kishini chuqur o'yga toldirishi, buguni va ertasi haqida o'ylashga majbur qilishi tabiiy. Ana shunday murakkab va tahlikali zamonda yurtimizda hukm surayotgan osoyishtalik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlik har qanday moddiy ne'matdan qimmatli va bebaho ekanini ich-ichimizdan teran anglaymiz.



Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mustaqillik va Vatan tushunchasining mohiyatini teran anglatib ketgan ma'rifatparvar namoyandalarimizning saboqlari bugungi kunda har birimiz uchun muhim ibrat maktabidir. Jumladan, Alixonto'ra Sog'unining "Turkiston qayg'usi" asarida keltirilgan quyidagi fikrlar bugungi voqelik bilan uyg'un holda chuqur ma'no kasb etadi:

**"Insonning eng sevgan qadrlik, qimmatlik to'rt narsasi bordur. Bu to'rt narsaga ega bo'lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo'ladilar. Alarning eng birinchisi shuldurkim, har odam o'z erk va ixtiyoriga ega bo'lmoqdur. O'zida erki yo'q, qo'lida ixtiyori yo'q odamlarning hayvondan nima farqlari bor? Ikkinchisi - qonuniy kasblari orqali topgan mol-u dunyosi, qilgan mehnatining mevasi shul topguvchining o'z haqqi bo'lgan xos mulkidur. Uchinchisi - har bir millatning haqiqiy onasi, u millatning tug'ilib o'sgan, ota-bobosidan meros qolgan Vatanidir. Ona Vatanni boshqalar tasarrufiga qoldirmoq Vatan avlodlarining kechirilmas og'ir jinoyatlaridur, balki inson huquqlariga qilgan xiyonatidir. To'rtinchisi - har mamlakat xalqining asrlar bo'yi asralib kelayotgan muqaddas dinlaridur"**

Ushbu fikrlar chin ma'noda inson hayotidagi eng oliy qadriyatlar tizimini belgilab beradi. Ayniqsa, Vatanni "millatning haqiqiy onasi" sifatida ta'riflash orqali muallif

uning nafaqat geografik hudud, balki ma'naviy, tarixiy va ruhiy birligini ham chuqur ochib beradi. Bugun ayrim xalqlar o'z yurtida tinch va erkin yashashdan mahrum bo'layotgan bir paytda Vatanni asrash, uning mustaqilligini ta'minlash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish har bir fuqaroning ma'naviy burchi bo'lib qolmoqda.

Demak, bugungi osoyishta hayotimiz osmondan tushmagani, balki asrlar davomida orzu qilingan va katta qurbonliklar evaziga qo'lga kiritilgan ne'mat ekanini har birimiz chuqur anglamog'imiz shart.

Kuni kecha qabul qilingan **"O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"**gi Prezident qarori nafaqat muhim siyosiy hujjat, balki milliy g'oya va ma'naviy taraqqiyotning strategik yo'nalishini belgilab beruvchi dastur sifatida namoyon bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Qarorda ilgari surilgan **"Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!"** degan bosh g'oya jamiyatni birlashtiruvchi, uni umumiy maqsadlar sari yetaklovchi asosiy tamoyil sifatida gavdalanadi. Ayni shu mazmun-mohiyat millat pedagogi Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlarida bor bo'y-basti bilan jonlanadi:




**"Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shu kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vatani - yurtidan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-farog'atda yashamas, maishati talx bo'lib, har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatani muhabbati turar"**.

Qarorda amalga oshirilayotgan islohotlarni keng yoritish, ularning natijalarini aholiga yetkazish, **xususan yurtimizning tinchligi va chegaralar daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi islohotlarni keng yoritish, istiqloq tufayli milliy qadriyatlar, davlatchilik, fuqarolik jamiyati**

institutlari, jumladan mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha erishilgan yutuq va natijalar ahamiyatini oshirish kabi ko'plab yo'nalishlar yuqori saviyada tashkillashtirish ko'zda tutilgan.

Ayniqsa, yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilishi mazkur qarorning eng strategik va uzoqni ko'zlagan jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki har qanday davlatning kelajagi, uning barqaror taraqqiyoti va raqobatbardoshligi, avvalo yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Qarorda yoshlarni **"Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari"** sifatida tarbiyalash, ular uchun bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarini egallash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish va o'z iqtidorlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha

# YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. **Bu esa Vatanga sadoqat tushunchasi faqat yuksak shiorlar doirasida emas, balki aniq amaliy faoliyat, yaratuvchanlik va fidoyilik orqali namoyon bo'lishi lozimligini anglatadi.**

Qarorda madaniy-ma'rifiy tadbirlar, festivallar, ijodiy loyihalar orqali mustaqillik g'oyasini keng targ'ib qilishga alohida urg'u berilishi ham bejiz emas. Chunki ma'naviyatni shakllantirishda san'at va adabiyotning ta'siri benihoya katta. Shu ma'noda Alisher Navoiyning **"Vatan tarkin bir nafas aylama, Yana ranji g'urbat havas aylama"**, degan hikmati nafaqat vatanparvarlik, balki yuksak ma'naviy da'vat sifatida ong-shuurimizda namoyon bo'ladi.

Hazratning ushbu misralarida Vatanga sadoqat, unga muhabbat va uni tark etmaslik g'oyasi inson ma'naviyatining eng yuksak mezon sifatida talqin etiladi. Bugungi kunda ushbu g'oyalarni madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali keng ommaga yetkazish, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish masalasi kechiktirib bo'lmas vazifalarimizdan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, qarorda tarixiy xotirani asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga qaratilgan tashabbuslar ham chuqur ma'naviy mazmunga ega. Jumladan, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari qiyofasini o'zida aks ettiruvchi **"Vatan fidoyilari"** ramziy monumentini yaratish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari va erishilgan yutuqlarga bag'ishlangan **"Mustaqillik**

**zafarnomasi"** maxsus kitob-albomini tayyorlash kabi vazifalar mustaqillik g'oyasini abadiylashtirishga xizmat qiladi. Bu kabi tashabbuslar orqali xalqimizning istiqlol yo'lidagi kurashi, erishilgan yutuqlar va bunyodkorlik ishlari kelajak avlod uchun ibrat va fidoyilik ramzi sifatida tarix sahifalariga muhrlanadi.

**Zero tarixiy xotiraga ega bo'lmagan jamiyat o'z kelajagini mustahkam qurolmaydi.**

Qarorda xalqaro miqyosda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, madaniy tadbirlar va xorijdagi vatandoshlar ishtirokida tashkil etiladigan loyihalarga ham alohida urg'u beriladi. Xususan, **"Mustaqil O'zbekiston - 35 yillik taraqqiyot yo'li: islohotlar, natijalar va istiqbollar"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o'tkazish, **"Mustaqil O'zbekiston - g'ururim, iftixorim"** shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish kabi tashabbuslar mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Qarorda **mustaqillik bayramining g'oyaviy ta'sirini oshirish uchun qator** shiorlar ham o'rtaga tashlanadiki, ulardagi umumiy maqsadlar tinchligimiz va tarixiy o'zligimizni namoyon etishda ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan,

**"Vatan manfaati - xalq manfaati!", "Yangi O'zbekiston - ezgu maqsad, yangi harakat!", "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Rennans sari!", "Mustaqillik - 35 yillik sharafli yo'li!", "Bir Vatan - bir taqdir!", "Yagona xalq, yagona Vatan, yagona maqsad!", "Mustaqil O'zbekiston - g'ururim, iftixorim!"** kabi shiorlar o'z mazmunida milliy birlik, fidoyilik va taraqqiyot g'oyalarini mujassam etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eng avvalo, mazkur qaror orqali mustaqillik tushunchasiga yangicha, chuqur va tizimli yondashuv shakllantirilganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Unda mustaqillik buyuk va muqaddas qadriyat sifatida belgilab qo'yiladi. **Bu esa har bir fuqaroning Vatan taqdiriga daxldorlik hissini oshirish, uni faol ijtimoiy pozitsiyaga chorlash va jamiyatda yuksak mas'uliyat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.**

Demak, ushbu qaror har birimizni Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslikka, mustaqillikni faqat e'tirof etish emas, balki uning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, uni mustahkamlash yo'lida faol ishtirok etishga chorlaydi.

**Zero Vatanga sadoqat - bu yuksak tuyg'u bo'lish bilan birga, aniq amaliy harakatlar, fidoyilik va mas'uliyat orqali namoyon bo'ladigan hayotiy pozitsiyadir.**

**Kapitan  
Bobur ELMURODOV,  
"Vatanparvar"**

Ma'rifat



**Har bir jamiyatning ertangi kuni avvalo uning ta'lim tizimida shakllanadi. Ta'lim – bu nafaqat bilim berish jarayoni, balki millat tafakkurini, uning kelajak istiqbolini belgilovchi ulkan ijtimoiy hodisadir. Chunki zamonaviy dunyoda taraqqiyotning eng muhim omili tabiiy boyliklar emas, balki bilim va yuqori salohiyatli inson kapitali hisoblanadi.**

Shu bois Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat taraqqiyotining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon oddiy yangilanish emas, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli ma'rifiy harakatdir.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar o'zining aniq natijalari bilan ajralib turmoqda. Bir necha yil avval yurtimizda oliy ta'lim bilan qamrov darajasi atigi 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 38 foizdan ortiq darajaga yetdi. Bu o'zgarishlar avvalo davlat siyosati darajasida ta'lim sohasiga berilayotgan yuksak e'tibor natijasidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmon ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, oliy ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish hamda yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu raqamlar shunchaki statistika emas, ular minglab yoshlarning orzulari ro'yobga chiqayotganini, ilm-fan sari ochilgan yangi imkoniyatlar eshigi tobora kengayib borayotganini ifodalaydi.

Ta'lim tizimidagi yangilanishlarning yana bir yorqin ko'rsatkichi oliy ta'lim muassasalari sonining keskin ortganidir. Agar 2016-yilda mamlakatda 77 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 200 dan ortiqni tashkil etmoqda. Shu bois ta'lim sohasidagi imkoniyatlar kengayib, yoshlarning intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun keng istiqbollarga paydo bo'lmoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlar maktab ta'limini rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda mamlakat bo'ylab 10 mingdan ortiq umumta'lim maktabi faoliyat yuritib, ularda 6 milliondan ortiq o'quvchi bilim olmoqda. Yangi maktablarning barpo etilishi, zamonaviy o'quv laboratoriyalari va axborot texnologiyalari bilan jihozlanishi yosh avlod uchun bilim olish jarayonini yanada samarali va jozibador ko'rinishga ega bo'layotgani e'tiborga molik. Chunki zamonaviy maktab nafaqat bilim maskani, balki

# TA'LIM ISLOHOTLARINING yangi ufqlari

kelajak g'oyalari shakllanadigan muhim ma'rifat markazidir.

Ta'lim tizimining yangi bosqichga ko'tarilishida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham muhim ekani barchamizga ma'lum. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari va raqamli kutubxonalar o'quv jarayoniga yangi mazmun va yangi ruh bag'ishlamoqda. Bugungi kunda minglab o'qituvchi va talabalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali bilim olish imkoniyatiga ega bo'lib, mazkur jarayon ta'lim tizimining ochiqligi va samaradorligini yanada yuksaltiradi.

Ta'lim islohotlarining eng muhim jihatlaridan biri pedagog kasbining nufuzi oshirilganidir. O'qituvchi jamiyat taraqqiyotining ma'naviy ustuni sifatida ta'kidlanib, so'nggi yillarda ularning mehnatini munosib rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tahliliy ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2016-yilda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi o'rtacha 20-22 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga kelib, bu ko'rsatkich 38-40 foizga yetdi. PhD tizimining joriy etilishi va natijada har yili ilmiy daraja olayotgan yosh olimlar soni 2-3 barobar oshishi ilmiy tadqiqot faoliyatining faollashuviga va ta'lim sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. 2018–2024-yillar davomida



pedagoglarning o'rtacha ish haqi qariyb 3-4 barobar oshirildi.

Bundan tashqari, xalqaro va milliy sertifikatlariga ega o'qituvchilar uchun qo'shimcha rag'batlantirish tizimi joriy etildi: milliy sertifikat uchun oylik maoshlariga nisbatan qo'shimcha 50% gacha, xalqaro sertifikatlar uchun esa 100% gacha moddiy rag'batlantirish kelinmoqda. O'qituvchilarning ijtimoiy himoyasi mustahkamlanishi, malaka oshirish tizimi takomillashtirilishi va ularning ijodiy faoliyati qo'llab-quvvatlanishi ta'lim sifatini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi. Zero kuchli ta'lim tizimi – bu, avvalo, kuchli o'qituvchilar demak.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro integratsiya jarayonlari orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida dunyoning yetakchi universitetlari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Jumladan, "El-yurt umidi" jamg'armasi, Prezident maktablari

hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentliklari tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarning xalqaro ta'lim makoniga chiqishida muhim omil bo'lmoqda. So'nggi yillarda University of Cambridge, University of Oxford, Massachusetts Institute of Technology, National University of Singapore kabi dunyoning yetakchi universitetlari bilan qo'shma dasturlar va akademik almashinuv loyihalari yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, mamlakatimizda Westminster International University in Tashkent, INHA University in Tashkent, Amity University Tashkent kabi nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarining faoliyat yuritayotgani ta'lim tizimining globallashtirish jarayoniga moslashayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur islohotlar natijasida yoshlarning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshdi. Statistik tahlillarga ko'ra, 2016-yillarda Top-100 universitetlarga



kirgan o'zbekistonlik talabalar soni 20–30 nafar atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024–2025-yillarga kelib bu ko'rsatkich 300–500 nafardan oshdi. Bu jarayonda xalqaro til sertifikatlari (IELTS, TOEFL), SAT imtihonlari hamda davlat tomonidan berilayotgan grantlar muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, xalqaro fan olimpiadalar ta'lim sifatidagi ijobiy o'zgarishlarning muhim ko'rsatkichiga aylandi. Xususan, matematika, fizika, kimyo va informatika kabi xalqaro fan olimpiadalarida o'zbekistonlik o'quvchilar faol ishtirok etib, 2016-yilda 10–15 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2024–2025-yillarga kelib, bu ko'rsatkich 70 dan ortiq sovrindor natijaga yetdi. Bu ulkan yutuqlar bejiz emas albatta. Ular xalqimizning boy ilmiy merosi, xususan Muhammad al-Xorazmiyning algebra va hisob ilmidagi asoslari, Abu Rayhon Beruniyning tabiiy fanlardagi chuqur ilmiy izlanishlari hamda Mirzo Ulug'bekning astronomiya va aniq fanlarga qo'shgan ulkan hissasi bilan chambarchas bog'liqdir.



Bugungi yosh avlod ana shu buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'analari munosib davom ettirib, jahon miqyosida yurtimiz nufuzini yanada yuksaltirmoqda. Bu yutuqlar bevosita Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashgan maktablar faoliyati, zamonaviy ta'lim dasturlari hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada bugungi kunda o'zbekistonlik yoshlar nafaqat milliy, balki global miqyosda ham o'z bilim va salohiyatini namoyon etishga qodir bo'lgan, zamonaviy fikrlaydigan va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanmoqda.

Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi ham yangilanishning muhim tarkibiy qismidir. Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy grantlar ajratish va innovatsion loyihalarni amaliyotga tatbiq etish orqali ilmiy salohiyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam ko'priklar barpo etilib, mamlakatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi ajralmas omilga aylanadi. Birgina oliy ta'lim muassasalarida yangidan tashkil etilgan dual ta'lim tizimi – yosh mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularni real ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va mehnat bozoriga tayyor holda kirib kelishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu loyiha ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning ma'rifiy taraqqiyot strategiyasining muhim qismidir. Ta'lim tizimida yaratilayotgan keng imkoniyatlar yosh avlodning bilimli, tafakkuri keng va zamonaviy dunyoqarashga ega shaxs bo'lib kamol topishiga xizmat qilmoqda. Negaki taraqqiyot sari olib boradigan eng ishonchli yo'l ilm va ma'rifat yo'lidir. Ta'limga qaratilgan har bir e'tibor esa kelajak avlod uchun yaratilayotgan ulkan poydevordir. Ma'rifatga tayanib rivojlangan jamiyat esa, shubhasiz, buyuk kelajak sari dadil qadam tashlaydi.

**Podpolkovnik  
Ravshan ERGASHOV,  
Harbiy aviatsiya instituti  
o'quv bo'limi boshlig'i, dotsent**



Suratlar tahririyat arxividan olindi

# JANGNI MODELLASHTIRISH MARKAZI

**Zamonaviy harbiy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish kursantlarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Quruqlikdagi qo'shinlar institutida yangi tashkil etilgan "Jangni modellashtirish" xonasi aynan ana shunday zamonaviy auditoriyalardan biridir.**

Mazkur o'quv sinfida kursantlar uchun turli taktik vaziyatlar sun'iy ravishda modellashtirilib, real jangovar sharoitga yaqin muhitda mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Bu jarayon bo'lajak ofitserlarning taktik fikrlashini rivojlantirish, bo'linmalarni boshqarish hamda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

"JCATS" dasturiy ta'minotida kursantlar qabul qilgan qarorlarni bo'linma tarkibida jang modelini ko'rib chiqish va optimal qarorni tatbiq etish imkonini beradi.

**Uchinchi punkt** "ARMA-III" dasturida qabul qilingan qarorni simulyatsiya qilish orqali jangovar vazifani bajarish bo'yicha yagona tushunchaga ega bo'ladi. **To'rtinchi punkt**da dushmanni

ifodalash orqali vaziyatni keskinlashtirish imkoniyati mavjud.

Mashg'ulot davomida kursantlar kichik bo'linmalar tarkibida harakat qilib, himoya va hujum harakatlarini tashkil etish, razvedka olib borish hamda bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tajriba orttiradi. Bunda



zamonaviy texnologiyalar yordamida har bir harakat real vaqt rejimida kuzatilib, tahlil qilinadi.

Tajribali ofitser o'qituvchilar mashg'ulot jarayonini doimiy nazorat qilib boradi. Mashg'ulot yakunida kursantlarning bajarilgan vazifalari batafsil tahlil qilinib, ularning taktik harakatlari baholanadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatilib,

yanada samarali harakat usullari tavsiya etiladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, jangni modellashtirish harbiy ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Eng muhimi, kursantlar murakkab vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Bugungi kunda Quruqlikdagi qo'shinlar institutida yaratilgan bunday zamonaviy o'quv sinfi yosh harbiylarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa kelajakda Vatan himoyasi yo'lida xizmat qiladigan malakali va yetuk ofitserlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Baurjan MEKAMBAYEV,**  
**Quruqlikdagi qo'shinlar**  
**institutida katta o'qituvchisi**

Mashg'ulotlar odatda puxta rejalashtirilgan holda tashkil etiladi. Avvalo, o'quv jarayonining maqsad va vazifalari belgilanib, kursantlarga bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar tushuntiriladi. Shundan so'ng maxsus simulyatsiya dasturlari va interaktiv ekranlar yordamida taktik vaziyatlar modellashtiriladi. Ushbu o'quv sinfi zamonaviy harbiy mojarolarda tahlil qilish va ularni turli taktik vaziyatlarni to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha bilim, ko'nikma hamda malakalarini oshirish uchun mo'ljallangan. O'quv sinfi raqamlashtirilgan maxsus ta'minot dasturi kursant va ofitserlarni zamonaviy jangovar harakatlar sharoitidagi taktik harakatlarga tayyorlash, kursantlarda strategik, taktik va tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bo'linmalarni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

O'quv sinfi to'rtta punktga bo'lingan bo'lib, **birinchisi** qaror qabul qilish punktidir, **ikkinchisi** – jangni modellashtirish punktida



Tarixiy o'zlik

# AMIR TEMUR SALTANATIDA RAZVEDKA XIZMATI

**Buyuk sohibqiron Amir Temur tomonidan barpo etilgan saltanat nafaqat o'zining harbiy qudrati, balki mukammal boshqaruv tizimi bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, saltanat boshqaruvida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda razvedka xizmatiga alohida e'tibor qaratgan.**

Sarkarda davlat boshqaruvida axborotning ahamiyatini juda yaxshi anglagan sababli turli manbalardan ma'lumot yig'ish tizimini puxta yo'lga qo'ygan. Razvedka xizmatini tashkil etishda asosan quyidagi toifalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maxfiy elchilar xorijiy davlatlarga yuborilib, siyosiy va harbiy ma'lumotlarni to'plagan, savdogarlar va sayyohlar tashqi ko'rinishda oddiy faoliyat yuritib, aslida muhim ma'lumotlarni yetkazib bergan. Ichki kuzatuvchilar davlat ichida tartib-intizomni nazorat qilgan. Ushbu tizim markazlashgan holda boshqarilib, barcha axborot to'g'ridan to'g'ri Amir Temurga yetkazilgan.

**Amir Temur o'zining "Tuzuklar"ida** "...oltinchi toifa – ishonchli, to'g'ri e'tiqodli oqilxiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, saltanat ishlari bo'yicha ulardan maslahat olishimga loyiq edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o'z maxfiy ishlarim va pinhoni sirsasrorlarimni o'shalarga topshirdim", deya alohida ta'kidlab o'tgan. **Shu o'rinda sohibqiron saltanatida razvedka xizmatini quyidagi asosiy vazifalarni bajargan:** dushman qo'shinlari soni, joylashuvi va rejalarini aniqlash, boshqa davlatlardagi ichki vaziyatni o'rganish, mamlakatdagi isyon yoki fitnalarni oldindan aniqlash va oldini olish hamda savdo yo'llari va bozorlar haqida axborotlar to'plagan.

Amir Temur razvedka xizmatini amalga oshirishda turli uslublardan foydalangan. **Ko'p bosqichli tekshiruv** – bir ma'lumotni bir necha manbalar orqali tasdiqlash,

**tezkor aloqa tizimi** – xabarlarini tez yetkazish maqsadida choparlar tarmog'i tashkil etilgan, **niqoblangan faoliyat** – razvedkachilar o'zini boshqa kasb vakillari sifatida namoyon etgan. Shu o'rinda Amir Temur saltanatidagi maxfiy xizmat to'g'risidagi aksariyat qimmatli ma'lumotlar uning zamondoshi Ibn Arabshoh tomonidan bizgacha yetib kelgan.

**Bu borada Ibn Arabshoh Amir Temur razvedka xizmatini haqida o'z fikrini davom ettirar ekan:** "Razvedkachilar chor atrofda bo'layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzil-u shaharlarni tavsiflaydilar. Ularning tekis va notekis joylarining suratlarini keltirib, uylari va daryolari o'rnini chizib ko'rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yo'zoq, tor yoki kengligini, shaharlar va qishloqlarning nomlarini, manzil va pinhon joylarini, har bir joyning avliyo boshliqlari, amirlari, ulug'lari, fozillari, boylari-yu faqirlarini, ularning har bir ism va laqabini, shuhrati va nasabini, hunari va vositalarini bayon qilardilar. Natijada Temur o'z fikri bilan shu narsalarni yaqqol ko'rib, tafakkuri natijasida o'z yerlari bilan xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi", deya alohida aytib o'tgan.

Amir Temur o'z davlatida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda, eng avvalo, razvedkachilarni tanlashda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rgan. Iшонchli, to'g'ri e'tiqodli, oqil kishilar toifasiga davlatning eng maxfiy sirlarini ishonib, muammolar yechimini topishda ular xizmatiga tayangan. Aynan mazkur soha vakillari dunyoda sodir bo'layotgan har xil yangiliklar, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealardan muntazam ravishda Amir Temurni

xabardor etib turgan. O'z navbatida, razvedkachilarning orasida turli yoshdagilari mavjud bo'lib, ularning har biriga o'zining darajasida muhim vazifa va topshiriqlar yuklatilgan.

**Bu haqda Ibn Arabshoh Amir Temur razvedkachilarining o'ta ziyrak va sezgirligiga qoyil qolib, ularning kamdan kam xato qilishini aytib o'tadi.** Sohibqiron o'z davlatida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida mamlakat sarhadlarining barcha tomonlariga o'zining razvedkachilarini qo'ygan edi. Ular o'ziga yuklatilgan muhim topshiriq va vazifalarni a'lo darajada ado etib, Amir Temurga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni muntazam yetkazib turgan. Belgilangan muhim topshiriq va vazifalarni bajarish jarayonida bir vaqtning o'zida bir razvedkachining o'rnida boshqa bir razvedkachi ish olib borgan. Natijada davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim topshiriqlarni bajarish jarayonida muntazam uzviylik ta'minlangan. Shu tariqa xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda razvedka va kontrrazvedka xizmatini Amir Temur davlati siyosatining bosh bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Mohir sarkarda o'z davlatida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida dunyoning turli mamlakatlarida savdogar, sayyoh, qalandar, munajjim, darvesh, folbin-u jodugar niqobi ostida faoliyat ko'rsatgan razvedkachilardan yuksak bilim va sezgirlik talab etilgan. Ayniqsa, razvedka borasida faoliyat ko'rsatgan chol va kampirlar o'zlarining o'ta ziyrakligi bilan ajralib turgan.

Xususan, chol va kampirlar fuqarolar bilan qiladigan muomalasida o'z hikmati bahsida ikki muxolifni bir-biriga biriktirish

yoki ikki dushmani bir-biriga do'st qiladigan darajada uddaburon kishilar sifatida taassurot uyg'otgan. Sohibqiron yurishga jo'nashdan ancha avval dushmanning qurolli kuchlari mudofaa inshootlari, u yerdagi ichki vaziyat kabilar haqida aniq va to'la ma'lumotga ega bo'lish maqsadida uning yurti va qarorgohiga o'z ayg'oqchilarini muntazam yuborib turgan. G'anim to'g'risida zarur ma'lumotlarga ega bo'lgandan so'nggina yurishga taraddud ko'rilgan.

**Ayniqsa, razvedka xizmatini bilan shug'ullanishda savdogarlarning tutgan o'rnini alohida ahamiyat kasb etgan.** Boisi savdogarlar savdo aloqalarini olib borish bahonasida qo'shni mamlakatlardagi siyosiy vaziyat to'g'risida o'ta muhim, qimmatli ma'lumotlardan xabardor etib turgan. Shu tariqa Amir Temur saltanatida razvedka xizmatini mukammal darajada tashkil etilgani, dushmani oldindan bilish imkoni bo'lgani sabab kam yo'qotish bilan g'alabaga erishib, davlat xavfsizligi barqarorligini saqlashga zamin yaratilgan.

Sohibqironning muvaffaqiyatli harbiy yurishlari va strategik qarorlari ko'p jihatdan aynan to'g'ri va o'z vaqtida olingan ma'lumotlarga bog'liq bo'lgan. Amir Temur razvedkachilarning o'ta qimmatli bo'lgan ma'lumotlariga tayangan holda o'zining harbiy yurishlarini nihoyatda puxtalik bilan amalga oshirgan. Bu esa katta-katta g'alaba va zafarlarni qo'lga kiritishga, saltanatda to'g'ri qaror qabul qilishda, harbiy yurishlarni rejalashtirishda hamda davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning razvedka xizmatiga alohida e'tibor qaratishdan ko'zlangan asosiy maqsadi, eng avvalo, davlatni har qanday ichki va tashqi xavfdan asrash orqali saltanatda muntazam tinchlik, xotirjamlik, barqarorlikni ta'minlashga hamda mamlakatda osuda hayotning hukm surishiga zamin yaratgan.

**Mansur MUSAYEV,**  
siyosiy fanlar doktori,  
professor.  
**Tolmas RAZZOQOV,**  
Respublika Ma'naviyat  
va ma'rifat markazi bo'lim  
mutaxassisi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

"Qahramon kema" tarixi

# IKKINCHI JAHON URUSHIDA

## "TOSHKENT" NOMI BILAN QAHRAMONLIK KO'RSATGAN ESMINESLAR LIDERI

**ESMINES** – bu eskadrilya mina tashuvchi, harbiy dengiz flotidagi ko'p maqsadli, tezyurar va manyovrchan, asosan suvusti va osti kemalariga hamda havo nishonlariga qarshi kurashish uchun mo'ljallangan jangovar kema turi hisoblanadi. "Toshkent" – ana shunday jangovar kemalardan biri va esmineslar lideri edi.



### "TOSHKENT" ESMINESI TARIXI

Sobiq Ittifoqning buyurtmasiga ko'ra, 1935-yilning 9-sentabrida Leningrad shahrida Italiyaning "Odero Terni Orlando" kema quruvchi firmasi bilan esminesning loyihasi ishlab chiqiladi va qurilishi bo'yicha shartnoma imzolandi. 1937-yilning 11-yanvarida esminesni qurish bo'yicha ishlar boshlanadi.

1937-yilga kelib, sobiq Ittifoq va Italiya davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi oqibatida shu yilning 28-dekabrda, to'liq qurib bitkazilmagan esmines suvga tushiriladi. Sinov suzishlaridan so'ng 1939-yilning bahor oylarida esmines sobiq Ittifoqqa olib kelinadi va shu yilning 22-oktabrida Qora dengiz floti tarkibiga kiritiladi. "Toshkent" esminesi o'z nomini Volga daryosida suzib yurgan, Rossiya imperiyasi va unga yaqin bo'lgan hududlardagi fuqarolik urushida qahramonliklar ko'rsatgan qurollangan jangovar kemadan "meros" tariqasida olgan, bundan tashqari, esmines och ko'k rangda bo'lgani sababli sevastopolliklar "Toshkent"ni "Moviy kreyser" deb ham nomlashgan.

### "MOVIY KREYSER"NING JANGOVAR FAOLIYATI

Ikkinchi jahon urushi yillarida "Toshkent" eminesi Odessa va Sevastopol shaharlarini qahramona mudofaasida faol ishtirok etadi. Esmines harbiy tashuvlarni, yarador jangchilarni va dengiz bo'yi shaharlarining tinch aholisini evakuatsiya qilish, frontga yuborilgan qo'shinlarning shaxsiy tarkibi va yuklari ortilgan

transport kemalarini qo'riqlovini amalga oshiradi. Bir necha bor quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar harakatlarini artilleriya o'ti bilan qo'llab-quvvatlaydi, Odessa va Sevastopol shaharlari yaqinida dushman istehkomlariga yuzdan ortiq amaliy otishni amalga oshiradi. Sudak, Feodosiya va Yevpatoriya qirg'oqlarida oltita qirg'oq batareyalarini hamda ko'p miqdorda dushmanning jangovar texnikasi va jonli kuchlarini yo'q qiladi.

O'zining birinchi jangini kema 1941-yil 22-avgust kuni qabul qiladi. Shu kuni "Toshkent" esminesi tomonidan dushmanning bir nechta mexanizatsiyalashgan kolonnalari yo'q qilinadi va tarqatib yuboriladi. Bir haftadan so'ng jangovar otishlar natijasida dushmanning qirg'oq oldi batareyalariga yetkazilgan talafotlar uchun esmines ekipaji Qora dengiz floti qo'mondonligidan birinchi "minnadorlik"ni olishdi. Oradan bir necha kun o'tib, dushman aviatsiyasi hujumiga uchragan "Toshkent" esminesi ikki aviabomba kema yaqinida portlagani sabab og'ir talafot ko'rdi. Esminesni ta'mirlash ishlari va uning zenit qurollarini kuchaytirish uchun belgilangan me'yoriy besh oyning o'rniga bir yarim oy sarflandi, bu mehnatlari bilan sevastopollik kemasoz ishchilar haqiqiy qahramonlik ko'rsatishdi.

1941-yilning dekabr oyida qo'mondonlik "Toshkent" esminesini Sevastopolga yordam berish uchun qo'llashga qaror qildi. "Moviy kreyser"ni artilleriya madadini Sevastopol shahrini mudofaalayotgan Primorsk armiyasining jangchilari va unda Novorossiyskdagi gospitalga evakuatsiya qilingan yarador askarlar uning qudratini

yaxshi bilishardi va eslashardi. Esmines o'z bortiga 2 500 ga yaqin jangchini sig'dira olardi. Har safar sevastopolliklarga ko'p miqdorda yonilg'i mahsulotlarini qoldirar, hattoki bir safar esmines o'z kubrigida o'ttizga yaqin o'q-dori yuklangan temiryo'l vagonini joylashtirib, Sevastopolni mudofaalayotganlarga yetkazgan.

"Toshkent"ning qamaldagi Sevastopolga har bir yurishi – bu yuzlab yaralangan askarlar va najot kutib turgan tinch aholi hayotini saqlab qolinishi umidi va xavfsiz hududlarga olib ketilishi jasorat deb ta'riflanar edi.

### OXIRGI JANG

1942-yilning iyun oylarida Sevastopol himoyachilarining ahvoli tang bo'lib qoldi – shaharni ushlab qolishning imkoni qolmadi. 26-iyun kuni yirik suvusti kemalaridan biri bo'lgan – esmineslar lideri "Toshkent" fashistlarning dengiz qamalini yorib o'tib, Sevastopolga kirib keldi. Esmines o'z bortiga 2 100 dan ortiq askar va tinch aholini qabul qildi, bundan tashqari, urushda saqlanib qolgan, madaniy merosga tegishli Ruboning 86 ta "1954-1955-yillardagi Sevastopolning mudofaasi" panoramasini ortib, 27-iyun tunda Novorossiysk shahriga yo'l olib, Sevastopolni tark etdi.

1942-yilning 2-iyul kuni soat 11:20 da Novorossiysk porti 14 ta "Messershmit" kuzatuvida uchib kelgan 64 ta nemis bombardimonchi samolyoti tomonidan havo hujumiga uchradi. 15 daqiqali jangda dushman samolyotlari og'irligi 250-1 000 kilogrammlik yuzdan ortiq bombani port va portda turgan kemalarga tashlashdi.

Tashlangan bombadan biri esmines yaqinidagi pirsiga tegdi va "Moviy kreyser"ni pirs parchalari bilan zararladi, oz soniyalardan so'ng 250 kilogrammlik ikkita bomba kemanding old, mashina bo'limiga tushdi va "Toshkent" esminesini port qirg'og'i yaqinida 10 metr chuqurlikka g'arq bo'lishiga sabab bo'ldi. Shu oz vaqt ichida og'ir talafotga uchragan "Moviy kreyser" matrosolari tomonidan 3 ta Messershmitt va 6 ta bombardimonchi samolyotlar yo'q qilindi. Bu jangda "Toshkent" esminesi va yana bir nechta jangovor, sanitar va boshqa kemalar suvga cho'kdi. "Toshkent"ning 344 ta ekipajidan 76 tasi halok bo'ldi va 77 tasi yaralandi.

### XULOSA O'RNIDA

Kemalar taqdiri inson taqdiri kabi o'xshash bo'ladi. Birining taqdiriga o'zidan so'ng hech bir atoqli nom qoldirmasdan, uzoq yo'l bosish nasib qilgan bo'lsa, boshqasi esa hali hayotligi davrida afsonaga aylanib ulguradi. Ikkinchi ta'rif "Toshkent" lideriga tegishli. Uning o'rinli shonli jasorati Ikkinchi jahon urushining, ya'ni 1941-yil 22-iyunidan 1942-yilning 2-iyuliga to'g'ri keladi. Ushbu 375 kun "Moviy kreyser"ning eng yorqin kunlari Qora dengiz flotining har bir jangovar kemalari uchun faxr va sharaflari sanaladi. "Toshkent" esminesi bunday faxrga loyiq va g'alabaga qo'yilgan poydevorning asoschilaridan biri, deb hisoblash o'rinli.

**Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining JG'MHO fakulteti siki boshlig'i podpolkovnik Nozim KAMALOV tayyorladi.**



# O'ZBEKISTON JAMDOASI XALQARO OLIMPIADA G'OLIBI

Yurtimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va vatanparvar etib tarbiyalash borasida olib borilayotgan izchil islohotlar o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, harbiy akademik ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar natijasida iqtidorli yoshlar safi tobora kengayib bormoqda. Buning yaqqol isboti sifatida Farg'ona shahrida joylashgan Mudofaa vazirligi tasarrufidagi "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida o'tkazilgan fizika fanidan xalqaro olimpiadani alohida e'tirof etish joiz.



Mazkur nufuzli ilmiy bellashuv Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar harbiy litseylari o'quvchilari o'rtasida tashkil etilib, unda bir qator davlatlardan tashrif buyurgan iqtidorli yoshlar o'zaro kuch sinashdi. Xususan, unda O'zbekiston jamoasi bilan bir qatorda Rossiya Federatsiyasi hamda Belarus Respublikasi vakillari ham faol ishtirok etdi.

Olimpiada jarayonlari yuqori saviyada tashkil etilib, unda ishtirokchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy ko'nikmalari ham chuqur sinovdan o'tkazildi. Murakkab masalalar, innovatsion yondashuv talab qiladigan topshiriqlar hamda zamonaviy laboratoriya ishlari orqali o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishi va salohiyati har tomonlama namoyon bo'ldi. Ayniqsa, yoshlarning mantiqiy fikrlashi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va ilmiy tafakkuri hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi.

Bellashuvlar davomida o'zbekistonlik o'quvchilar o'zlarining puxta tayyorgarligi, mustahkam bilimlari va yuksak intellektual salohiyati bilan alohida ajralib turdi. Ular berilgan har bir topshiriqqa ijodiy yondashib, murakkab masalalarning eng maqbul yechimlarini topa oldi. Bu esa



yurtimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijasi ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamo'a hisobida O'zbekiston jamoasi faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritib, xalqaro maydonda yurtimiz sha'nini



munosib himoya qildi. Ikkinchi o'rin Rossiya jamoasiga, 3-o'rin esa Belarus jamoasiga nasib etdi. Ushbu natijalar o'zbekistonlik yoshlarning bilim darajasi, salohiyati va raqobatbardoshligi yuksak ekanini yaqqol namoyon etdi.

Olimpiada doirasida mehmonlar uchun boy madaniy dastur ham tashkil etildi. Bu haqda Rossiya jamoasi a'zosi Mark Filkin o'z taassurotlari

bilan o'rtoqlashar ekan, Farg'ona vodiysining betakror go'zalligi va xalqining mehmondo'stligidan hayratda qolganini ta'kidladi:

- O'zbekiston, ayniqsa Farg'ona bizda juda iliq taassurot qoldirdi. Bu yerda nafaqat yuqori saviyada tashkil etilgan musobaqalarni, balki samimiy insonlarni ko'rdik. Biz Rishton tumaniga borib, mashhur kulolchilik an'analari bilan, Marg'ilon shahrida esa milliy hunarmandchilik va ipakchilik madaniyati bilan yaqindan tanishdik. Umuman olganda, bu safar biz uchun nafaqat ilmiy, balki madaniy jihatdan ham unutilmas bo'ldi.

Erishilgan g'alaba nafaqat "Temurbeklar maktabi" jamoasi,



balki butun mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun muhim yutuq hisoblanadi. Bu esa yoshlarimizning ilm-fan sohasidagi yutuqlari tobora ortib borayotganidan, ularning xalqaro maydonda o'z o'rnini topayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, bunday nufuzli olimpiadalar yoshlar o'rtasida do'stona aloqalarni mustahkamlash, tajriba almashish va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli davlatlardan kelgan o'quvchilar o'zaro muloqot orqali yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, kelajakdagi hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratadi.

**Gulihumo MAJIDOVA,**  
Sharqiy harbiy okrug  
matbuot xizmati  
bosh mutaxassisi



Amaliy-o'quv tashrif

# Ma'naviy ustunlik —

## YENGILMAS ARMIYA POYDEVORI

Bugungi kunda dunyoning turli nuqtalarida kechayotgan murakkab harbiy-siyosiy jarayonlar, "gibrid urushlar" va axborot xurujlari shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy mojaralarda g'alabani nafaqat eng so'nggi rsumdagi qurol-yarog', balki birinchi navbatda, jangchining ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi va sadoqati hal qilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni raisligida joriy yilning 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida aynan shu masalaga – harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, jangovar ruhini yuksaltirishga alohida urg'u berilgan edi.

Ushbu strategik topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Milliy iftixor va harbiy-vatanparvarlik kafedrasidan

tinglovchilar, kursantlar va professor-o'qituvchilarning O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga "Mafkuraviy mudofaa – eng ishonchli qalqon" shiori ostida amaliy-o'quv tashrif tashkil etildi.

Zotan, hozirgi dunyoda qurolli mojaralar nafaqat poligonlarda, balki insonlarning ongi va qalbi uchun kurash maydonlarida ham kechmoqda. Bunday sharoitda bo'lajak



milliy g'urur va jangovar ruhni amalda shakllantirishdir. Bu yerda ular darsliklarda o'qiyotgan tariximizni o'z ko'zlari bilan ko'rib, qalb qatlamlari bilan his qilishmoqda".

Ajdodlar strategiyasi zamonaviy ofitser uchun namunadir. Shu ma'noda Islom sivilizatsiyasi markazidagi eksponatlar, buyuk sarkardamiz Amir Temurning harbiy san'ati, allomalarimizning dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi kursantlar tomonidan "strategik tahlil" prizmasi orqali o'rganildi. Tariximizning oltin davrida erishilgan yutuqlar bugungi kunning murakkab savollariga javob beradi: "Kuch – bilim, adolat va birlikda".



ofitserda yuksak "mafkuraviy immunitet"ni shakllantirish davlat xavfsizligining ajralmas qismidir.

Tashrif davomida kafedra o'qituvchilari ta'limdagi yangi bosqichni shunday izohladi: "Biz bugun ta'limni auditoriyadan tashqariga, ma'naviyat o'choqlariga olib chiqdik. Maqsadimiz – shunchaki nazariy ma'ruza emas, balki dunyodagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyatda kursantlarimizda metindek iroda,

Zamonaviy qurolli to'qnashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini anglagan askar har qanday ruhiy bosim va axborot xurujlariga qarshi tura oladi. Islom sivilizatsiyasi markazi aynan mana shunday ma'naviy quvvat manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Tashrif yakunida kursantlar nafaqat yangi bilimlar, balki ichki bir qat'iyat hamda kelajak ofitserining ma'naviy portreti bilan qaytdi. Zero o'z yurtining o'tmishidan kuch olgan ofitser uning porloq kelajagini har qanday tajovuzdan himoya qilishga qodir bo'ladi. Ma'naviyat va harbiy mahorat uyg'unligi xavfsizligimizning bosh kafolatidir.

**Polkovnik Akromjon SHOXAKIMOV,**  
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kafedra boshlig'i, falsafa doktori, dotsent



Tarix va bugun

# AMIR TEMURNING

## korrupsiyaga qarshi

# KURASHISH USLUBLARI

(“Tuzuklar” asosida)

**Amir Temur o'z saltanatini islom dini asosida qurib boshqargan. Iymon bor joyda adolat bo'ladi, adolat bo'lgan joyda qonun ustuvor bo'ladi, qonun ustuvor bo'lgan joyda mansabni suiiste'mol qilish uchun muhit bo'lmaydi. Amir Temur saltanatida, mansabni suiiste'mol qilib, yetimlar va nochorlarni haqqini yeyish, pora olish axloqqa zid hisoblanib, jazoga loyiq deb topilgan.**



Amir Temur “Tuzuklar”ga asoslanib, bugungi kun bilan solishtirib, mantiqiy fikr yuritib, bunday ulkan saltanatda korrupsiyaga yo'l qo'ymagani to'g'risida yoritishni o'zimizga lozim deb topdik.

Yuqori amaldorlarni, ayniqsa vazirlarni mansabga tayinlashda Amir Temur quyidagi sifatlariga tayanagan: “...vazirlar to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim; **birinchisi** – asllik va toza nasllik, **ikkinchisi** – aql, farosatlilik, **uchinchisi** – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, **to'rtinchisi** – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik”. Asllik va toza nasllik deganda ko'pchilik mansabdor va katta moddiy boyligiga ega bo'lganlarni tushunishadi. Lekin u davr axloqiga asosan ota-ona avlodida nokaslar, o'g'rilar, xoinlar, sudxo'rlar, laganbardorlar, firibgarlar, qazzoblar bo'lmagani hamda iymoni yuksak va insoniy sifatlar bilan ulg'aygan inson nazarda tutilgan.

Aql va farosatlilik tagida ziyoli, o'qimishli, madaniyatli, ma'rifatli, axloqi yuksak, oriyatli, barcha qilmishlarini har tomonlama o'ylab, saltanat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan, fikr yurituvchi va oqilona tarbiyaga ega bo'lgan inson inobatga olinyapti.

Sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik deganda mansabdorning yuqori kamtarinligi, oddiyliyi, amaliga va moddiy boyligiga qaramay, barchaga bir xil yondashishi bilan inson taqdiriga va qadriga befarq bo'lmagani inobatga olinyapti.

Sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik deganida mansabdorning vazminligi, barcha narsalarga his-tuyg'ularga berilmay, masalalarni mulohaza asosida hal qilishligi inobatga olinyapti.

**Bunday sifatlariga ega bo'lgan vazirga (amaldorga) to'rt imtiyoz – ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat in'om etilgan.**

Amir Temur zabt etgan davlatlarda islom qonunlariga tayanib, lashkarlari tinch aholiga ziyon yetkazmaslik uchun ko'rgan choralarini “Tuzuklar”ida aks ettirgan: “Lashkar uchun maxsus qozi va raiyat uchun alohida qozi tayinladim; har mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin”.

**Sohibqiron ulkan saltanatini halol va adolatli boshqarishida, oddiy xalqqa nisbatan adolatli munosabatda bo'lgani va ularni manfaatlarini barcha narsalardan ustun qo'ygani to'g'risida to'qqizinchi tuzugida yoritilgan:** “Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larni og'a qatorida, kichiklarni farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasm-u odatlari, mizojidan voqif bo'lib turdim. Mizojlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolidan, sipoh-u

raiyat kayfiyatini, turish-turmushini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni hatto bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli, to'g'ri yozuvchi kishilarni belgiladim. Bordi-yu egri yozganlari menga bildirilsa, ularni jazoladim. Hokimlar-u sipohlar qay birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim”.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lgan, undan tashqari, uning qalbida iymonli va oliyjanob insonga xos yuqori ma'naviy va axloqiy sifatlar bo'lgan. O'z tuzugida bir necha bor hech kimdan o'ch olish payida bo'lmaganini, ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'ziga rom qilganini aytib o'tgan.

O'g'illar, nabiralar, qavm-u qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash yo'li bilan saltanatda intizom saqlash haqida tuzukni sinchkovlik bilan o'rgansak, qanday qilib to'g'ri egri amaldorlarga chora ko'rib, o'zini adolatli va buyuk davlat arbobi, mohir davlat boshqaruvchi bo'lganini anglab olamiz. Masalan, mamlakat xazinachilari bo'lmish vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilsalar, o'zlashtirib olgan mablag', oladigan maoshidan uch barobar ko'p bo'lsa, hammasi saltanat xazinasiga musodara qilindirdi. Undan tashqari, vazirlarni ortiqcha siylamaslik to'g'risida hukm chiqargan, chunki alohida izzat-ikrom ularni manmanlikka olib kelishi mumkin.

**Vazirlarning xizmat qilish tuzugidan, Amir Temur saltanatida qanday kuchli taftish va nazoratni o'rnatib, amaldorlar mansabni suiiste'mol qilish yo'lini to'sganini bilib olamiz.** Masalan, har kuni devonxonada to'rt vazir muqarrar hozir bo'lgan hamda chegara yerlarda va zabt etilgan mamlakatlarda uch vazirdan iborat davlat hay'ati tuzilgan. Ularning zimmasiga mazkur yerlarda moliyaviy muammolarni va keladigan daromadlarni boshqarish yuklatilgan edi.

Amir Temurning adolatligi uning tushgan ariza va murojaatlarni qat'iy nazorat qilishida belgilangan. Masalan, ariza va murojaatlar bo'yicha bir kishi arzbehi etib tayinlangan. Uning zimmasiga sipoh, raiyat va arz-dod qilib keluvchilarning ahvolidan, mamlakatning obod-xarobligini, muhim ishlardan qaysi biri bitgan-bitmaganini Amir Temurga yetkazib turish yuklatilgan edi. Undan tashqari, saltanatning har bir idorasida bo'ladigan kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlangan.

Saltanatni idora qilish tuzugida sohibqiron huquq-targ'ibot xodimlarga yuklatilgan vazifalar aks ettirilgan. Masalan, har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlangan, uning vazifasiga sipoh-u raiyatga soqchilik qilish va birovning narsasi o'g'irlansa, buning soqchilik qilgan hisobidan qoplanardi. Savdo karvonlarning xavfsizligini

ta'minlash uchun davlat hududining barcha yo'llari nazoratga olinib, zobitlar va kuzatuvchilar tayinlangan. Ularning zimmasiga birkirilgan yo'llarni qo'riqlab, yo'lovchilarni, savdogarlarni, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan manzilga yetkazib qo'yish yuklatilgan.

**“Tuzuklar”da yozilgan:** “Binobarin saltanatimning eng chekka ovulida tartib va qonun o'rnatilgan bo'lsa, demakki, men o'sha yerda bordekman. Shuning uchun ham hokimiyatni qo'lga kiritgan kunimdan shu paytga qadar, hozir mana shu satriqlarni yozayotgan daqiqalargacha nimaiki qilgan bo'lsam, barchasini qonun doirasida qildim.

Chingizxon davlat boshqaruvida kuch va shafqatsizlikka asoslangan bo'lsa, men barcha ishlarimni shariat ahkomi va dunyoviy qonunlar asosida adolat yuzasidan olib bordim. Xalq shuni chuqur anglasinki, men qaysi masalada qanday qaror qabul qilgan bo'lsam, ham diniy talablar, ham hayot talablari nuqtayi nazaridan muhimligiga e'tibor qaratganman. Shuning uchun ham qarorim ham ruhan, ham qalban qabul qilinmog'i darkor.

**Men askarlarimni ham ana shu ruhda tarbiyaladim:** ularni qonunlarga so'zsiz itoat etishga o'rgatdim. Unga xilof ish qilsalar ayovsiz jazoladim.

Mening qattiqqo'lligim, bag'ritoshligim, eng avvalo, xalqning tinchligi, saltanatim ravnaqi uchundir. Dushmanlarimga ayovsizman, rost! O'g'irlik, talonchilik, zo'ravonlik ildizlariga qattiqqo'llik bilan bolta urilmasa, muloyim mijozlik bilan kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Buning isboti uchun mening saltanatimda o'rnatilgan tartib-qoidalarni ko'r. Binobarin, biror bir karvon bugun Anqaradan chiqib, Samarqandga borguncha biror bir kishi karvonga ham, undagi yuklarga ham ziyon yetkazishga jur'at etmaydi. Yoki bir o'smir bolaning boshiga tilla to'la barkashni qo'yib, mamlakatim bo'ylab safarga jo'nat – shimoldan janubgacha, sharqdan g'arbga borsin u: bola ulg'ayib, balog'at yoshiga yetar, ammo barkashdagi tilla tangandan, hatto bittasi ham yo'qolmasligiga kafilman. Hatto norasida go'dakning narsasiga birov dahl qila olmaydi, men boshqarayotgan mamlakatda.

So'rab ko'r-chi, hududsiz mamlakatimning biror bir shahar yoki qishlog'ida, kent yoki ovulida o'g'ri kechasi falon xonadonga yoki do'konga o'g'irlikka tushibdi, degan gapni eshitasanmi? Iymonim komilki, bunday gapni eshitmaysan, faqat ushbu tartib va qoidalarni o'ratgunga qadar bo'lgan voqealar bundan mustasno. Ulug' va ulkan mamlakatimdagi katta yo'llardan talonchilikning, shaharlarda o'g'irlikning, tilanchilikning ildizini quritdim.

Borib ko'r, biror bir muhtoj, notavonni uchratsanmi? Tilanchilikni yo'qotish uchun quyidagicha yo'l tutdim. Avvalo, ularning orasidan haqiqatan ham

muruvvatga muhtoj ko'rlar va mayib-majruhlar ajratildi. Ularga davlat tomonidan nafaqa belgilandi. Bunga qanoat qilmay, kasb-u korini davom ettirsa, qatl etilishi muqarrarligi ogohlantirildi.

Dastlabki paytlari ba'zilar o'rnatilgan tartibni aylanib o'tib, o'z ishini davom ettirmoqchi bo'lganlar ham bo'ldi – ular jazoga tortildi. Oxir-oxibat mening amrim bilan o'ynashib bo'lmashligini anglab yetishdi. Mehnatga layoqatli tilanchilarni esa ishlashga majbur qildik. Bugun mening saltanatimda qiynalib, qisib yashayotgan birorta sayyidni uchratmaysan.

Sayyidlar – payg'ambar avlodlari. Mengacha bo'lgan davrda shaharlarda o'n mingtacha sayyid yashar edi. Ular muhtojlikda kun kechirar edi. Bir parcha non topish uchun o'lib-tirilib mehnat qilar edi. Payg'ambar (s.a.v.)ga bo'lgan cheksiz hurmatim haqqi uning avlodlarini “hamsa” hisobidan moddiy daromad oladigan qildim (*hamsa – harbiy o'ljaning beshdan bir qismi*). Sen mening mamlakatim kabi tinch, faravon boshqa bir yurtni ko'rmagansan, ko'rmaysan ham, chunki bunaqasi boshqa joyda yo'q.

El to'q, erkin – sha'ni, qadr-qimmatini daxlsiz. Avvallari mahalliy to'ralar, nozirlar o'ligini xalqning ustiga tashlab olgan edi: xohlagan bir xonadonga kirib, tekinga ovqatlanib, qornini to'qlab yuravergan. Istasa, uy egasidan rozilik so'ramasdan ham uning uyida tunagan. Hozir shunday qilgan amaldorning boshi ketadi.

Agar askar, soqchi yoki mirshab fuqarodan bir nima olsa-yu, el qatori pulini to'lama – vakolatini suiiste'mol qilsa, nafaqat bosh kiyimi, boshidan ham ajraladi”.

XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan davlatlarning iqtisodchilari “Qayerda kuchli nazorat va taftish bo'lsa, o'sha yerda tarraqqiyot bo'ladi”, degan xulosaga kelgan. Amir Temur davlatida bunday yondashish XIV asrlarda davlat boshqaruvida qo'llanilgan. Masalan, saltanat hududida kundalik voqealarni yozuvchilar tayinlangan. Ularning zimmasiga hokimlar, raiyat, sipoh, o'z lashkari va yot lashkarlarning xatti-harakati haqida Amir Temurga yetkazish yuklatilgan. Undan tashqari, ularga atrofda kirgan-chiqqan molk-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo'shni podshohlar, ularning gap-so'zlari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o'lkalarda bo'lib, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan yozib berish yuklatilgan. Agarda mansabni suiiste'mol qilib yolg'on yozilsa, uning keltirgan ziyoniga qarab, jazolar belgilangan.

**T. MAMATOV,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Serjantlar tayyorlash oliy maktabi katta o'qituvchisi.**  
**N. MAMATOVA,**  
**SamDTU o'qituvchisi**

Mulohaza

# “CHINOR VA SHUNQOR: OKOPDAGI IKKI DUNYO TAFAKKURI”

**Insoniyat tarixi – bu nafaqat qurollar, balki axborot almashish usullarining ham evolyutsiyasi. Kechagina harbiy qismlarda tong bosma nashrlarini yoki kitoblarni mutolaa qilish, tahliliy maqolalar ustida mulohaza yuritish bilan boshlangan bo'lsa, bugun ofitser va askarning kun tartibi smartfon ekranidagi cheksiz xabarlar oqimini ko'zdan kechirish bilan boshlanmoqda. Bu shunchaki texnologik o'zgarish emas, balki ikki xil dunyoqarash, ikki xil tafakkur tarzining to'qnashuvidir.**

**“Mutolaa avlodi”** – bu sabr, chuqur tahlil va chiziqli mantiq sohiblari. Ularning asosiy yutug'i ma'lumotni oylar davomida xotirada saqlash, matn ortidagi ma'noni uqa olish va tizimli fikrlash qobiliyatidir. Ular uchun har bir so'zning vazni bor. Biroq bugungi shiddatli axborot oqimida bu “vazminlik”, ba'zan qaror qabul qilish tezligiga xalaqit berishi mumkin.

**“Smartfon avlodi”** – bu soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasidan ma'lumot topa oladigan, bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajaradigan shiddatli kuch. Ularning ustunligi – g'ayritabiiy tezkorlikda, ammo kamchiligi – diqqatning tarqoqligi va axborotning “yuzaki” qatlamda qolib ketishi. Ular uchun ma'lumotning sifati emas, balki uning yetib kelish tezligi birinchi o'rinda turadi.

Ushbu ikki avlod vakillari bugun bitta okopda, bitta jangovar vazifani bajarish uchun yonma-yon turibdi. Xo'sh, mutolaa orqali dunyoqarashi shakllangan komandir va smartfon bilan ulg'aygan askar bir-birini tushunishi uchun nima qilishi kerak? Ularning tafovuti armiyamizning zaif nuqtasimi yoki aksincha, bir-birini to'ldiruvchi yangi qudratmi?

Ushbu qudratning mohiyatini tushunish uchun, avvalo, gap kimlar haqida ketayotganini aniqlab olishimiz lozim. Sotsiologiya va “Avlodlar nazariyasi” asosida ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

**“Mutolaa avlodi” (1945–1980-yillarda tug'ilganlar).**

Bu avlod vakillari asosan, “Baby boomers” va “X avlodi” vakillaridir. Ularning dunyoqarashi televideniye va internetdan oldin – kitob, gazeta va radio orqali shakllangan.

**Belgisi:** ma'lumotni qog'ozdan o'qishni afzal ko'radi, har bir ma'lumotni mantiqiy tahlil qiladi. Ular uchun bilim – bu kutubxonalarda to'plangan fundamental tajriba.

**“O'tish davri avlodi” (1981–1996-yillarda tug'ilganlar).**

Bular “Millenials” yoki “Y avlodi”dir. Ular kitobni ham, internetni ham birdek ko'rishgan. Ular ikki dunyo o'rtasidagi “ko'prik” vazifasini o'taydi.

**“Smartfon (Raqamli) avlodi” (1997–2012-yillarda tug'ilganlar).**

Bular “Gen Z” (“Z avlodi”) vakillari bo'lib, bugungi kunda armiyamizning asosi muddatli harbiy

xizmatchilari va yosh ofitserlaridir. Ular qo'liga smartfon tutgan holda ulg'aygan birinchi avlodidir.

**Belgisi:** ular uchun dunyo “ekran” orqali ko'rinadi. Ma'lumotni vizual (*video/rasm*) ko'rinishda qabul qiladi. Ularning miyasi bir vaqtning o'zida bir nechta axborot oqimini qayta ishlashga moslashgan.

Nima uchun 1970-yilda tug'ilgan polkovnik va 2004-yildagi askar bir xil matnni turlicha qabul qiladi? Buning zamirida miyaning axborotni qayta ishlash uslubi yotadi.

**“Mutolaa avlodi”:** “Chuqur suzish” (*Deep Reading*). Kitob va gazeta o'qiganda, miyada chiziqli zanjir hosil bo'ladi. Bu jarayonda miyaning tanqidiy tahlil va uzoq muddatli xotira uchun javobgar qismlari faollashadi. **Fakt:** tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qog'ozdan o'qilgan ma'lumot raqamli ekranga nisbatan 20-30 foizi ko'proq esda qoladi. Bu ofitser uchun murakkab strategik vaziyatlarni oylar davomida tahlil qila olish qobiliyatini beradi.

**“Smartfon avlodi”:** “Yuzaki skanerlash” (*Skimming*). “Gen Z” vakillari matnni o'qimaydi, balki uni “skaner” qiladi. Ularning ko'zlari ekranda “F” harfi shaklida harakatlanadi: sarlavha, birinchi qator va kalit so'zlar. **Fakt:** zamonaviy yoshlarning diqqat konsentratsiyasi o'rtacha 8 soniyaga tushgan. Ammo – bu zaiflik emas. Bu miyaning ulkan axborot oqimidan eng keraklisini tezda saralab olish qobiliyatidir.

**Keling, bu tafovutni aniq jangovar vaziyatda ko'rib chiqamiz:**

**“Mutolaa avlodi” (komandir):** Operatsiya rejasini tuzishda dushmanning tarixiy odatlari, hududning geografik xususiyatlari va uzoq muddatli logistikani hisobga oladi.

**“Smartfon avlodi” (askar):** u real vaqt rejimida dron kamerasidan kelayotgan oqimni kuzatib, dushmanning harakatini soniyalar ichida aniqlaydi.

Gibrid urush sharoitida “Mutolaa avlodi” dezinformatsiya va “feyk”larga chidamlidir. Ular har bir gapni tekshirishga odatlangan. “Smartfon avlodi” esa texnologik kiberhujumlarni tezda bartaraf etishga, raqamli muhitda baliq suvda suzgandek harakat qilishga qodir.

Bugungi kunda dunyo miqyosida “Analog dunyo” (“Mutolaa avlodi”) va “Raqamli dunyo” (“Smartfon avlodi”) vakillari bir vaqtning o'zida, bitta makonda faoliyat yuritmoqda. **Bu to'qnashuvning 3 ta asosiy sababi bor:**

**1. “Vaqt qadri” tushunchasining o'zgarishi.**

**“Mutolaa avlodi” uchun:** sifat va aniqlik vaqtdan ustun. Ular “Yetti o'lchab, bir kesish” tamoyiliga amal qiladi.

**“Smartfon avlodi” uchun:** tezlik hamma narsadan ustun. Hozir va shu yerda natija olish ularning asosiy talabi.

**Harbiy sohada:** bu shtabdagi chuqur tahlil va jang maydonidagi soniyalik qarorlar o'rtasidagi ziddiyat.

**2. “Iyerarxiya (Pillapoya)” va tarmoq tizimi.**

**“Mutolaa avlodi”:** qat'iy tartib, buyruq va vertikal boshqaruvga ishonadi. Bilim – bu yuqoridan pastga beriladigan meros.

**“Smartfon avlodi”:** gorizontal aloqalarga, ya'ni tarmoq (*network*) tizimiga o'rgangan. Ular uchun bilim – bu Google yoki umumiy chat. Ular ko'r-ko'rona bo'ysunishni emas, “Nima uchun?” degan savolga mantiqiy javob olishni xohlashadi.

**3. Bilimga bo'lgan munosabat.**

Avvalgi avlod: bilimni yig'ish va xotirada saqlash muhim edi (*kutubxonadagi ktob kabi*).

Yangi avlod: Bilimni topish va qo'llash muhim (*internetdagi havola kabi*). Ularning miyasi ma'lumotni saqlamaydi, balki unga boradigan “yo'l”ni eslab qoladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Bu to'qnashuv – armiya uchun imkoniyatmi yoki xavf?

Agar biz bu to'qnashuvni o'z holiga tashlab qo'ysak – bu xavf. Komandir va askar bir-birini tushunmaydi, ishonch yo'qoladi. Lekin agar biz buni sintez qila olsak – bu yengilmas kuch.

Zamonaviy urushlarda faqat tajriba bilan yoki faqat texnologiya bilan g'alaba qozonib bo'lmaydi. G'alaba – “Mutolaa avlodi”ning strategik sabri va “Smartfon avlodi”ning texnologik chaqqonligi birlashgan nuqtada bo'ladi.

Fikrimiz yakunlanar ekan, yana bir muhim masalani ko'zdan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir.

**“Mutolaa avlodi” (X):** strategik poydevor va tizimli mantiq (*armiyaning aqli*).

**“O'tish davri avlodi” (Y) avlodi** (*milleniallar*).

**“Smartfon avlodi” (Z):** texnologik shiddat va tezkorlik (*armiyaning qo'li*).

Bu 3 avlod bilan birgalikda Alfa avlodi (*kelajak*): Sun'iy intellekt va yuqori texnologiyali simbioz (*armiyaning ko'zi*). “Alfa avlodi” – bu taxminan 2010-yildan 2025-yilgacha tug'ilgan va tug'ilayotgan bolalar. Ular insoniyat tarixidagi eng o'ziga xos avlod hisoblanadi. Nega?

**Hayotiy “Keys”. Maqolaga kichik bir hikoya qo'shing. Masalan:**

“Tasavvur qiling, o'quv mashg'ulotida tajribali polkovnik (*“Mutolaa avlodi”*) qog'oz xaritada dushman harakatini chizib berdi. Shu vaqtda yosh leytenant (*“Smartfon avlodi”*) dron orqali dushmanning aniq koordinatlarini smartfoniga bir necha soniyada yuklab oldi. Polkovnikning strategik tajribasi va leytenantning texnologik chaqqonligi birlashganda, shartli dushman birmunda yo'q qilindi”.

**Ziddiyatli (kontrast) savollar.**

O'quvchini o'ylantirib qo'yadigan savollar tashlang: Siz qaysi birini xavfliroq deb o'ylaysiz: miltig'i bor askarmi yoki qo'lida smartfoni bor, ammo axborot xurujiga uchragan askarmi?

Kitob o'qish – bu shunchaki xobbi emas, balki miyaning bronejileti ekanini askarlarimizga tushuntira oldikmi?

**“Mutolaa avlodi”** – bu chuqur ildiz otgan har qanday bo'ronga bardosh beradigan chinor.

**“Smartfon avlodi”** – bu har qanday masofani soniyada bosib o'tadigan shunqor.

Bizga bugun chinorning mustahkamligi va shunqorning tezkorligi birlashgan gibrid armiya kerak.

Avlodlar o'rtasidagi tafovut – bu shunchaki yoshdagi farq emas, balki axborot bilan ishlash madaniyatining yangi bosqichi. Bugun biz “Mutolaa avlodi”ning strategik sabrini “Smartfon avlodi”ning raqamli shiddati bilan birlashtirish ostonasida turibmiz. Biroq bu jarayonda ofitser, avvalo, o'zining kognitiv (*aqliy*) holatini tahlil qila olishi shart.

Siz oxirgi marta qachon 20 sahifalik harbiy-nazariy matnni chalg'imasdan, oxirigacha o'qidingiz? Agar mutolaaning 10-daqiqasidayoq qo'lingiz ixtiyorsiz smartfonga yugurgan bo'lsa, demak, sizda ham “Z avlod” elementlari shakllanib ulgurgan. Bu diqqat tarqoqligi va sayoz mutolaa tuzog'iga tushishning ilk belgisidir.

**Ofitserning mahorati** – o'zida har ikki dunyo afzalliklarini jamlay olishida. Biz askarga kitob o'qitish orqali uning miyasida “tahliliy filtr” yaratamiz, unga smartfon berish orqali esa jangovar imkoniyatlarini kengaytiramiz.

Ammo vaqt to'xtab turmaydi. Bugun biz “Z avlodi” bilan tillashishni o'rganayotgan bir paytimizda, ostonada allaqachon “Alfa avlodi” ko'rinish bermoqda. Bu avlod vakillari uchun sun'iy intellekt – do'st, kiberfazo esa tabiiy yashash muhiti. Ertaga ular dronlarni fikr kuchi bilan boshqarishi, kibermakon bilan bir butun bo'lib yashashi hech gap emas.

**Asosiy savol esa ochiq qolmoqda:** biz bugungi kun ofitserlari – o'zimizning mustahkam ma'naviy poydevorimizni saqlab qolgan holda bu “shishadan yasalgan” raqamli avlodga chinakam ustozlik qilishga tayyormizmi? Zero kelajak armiyasining kuchi faqat qurollarda emas, balki turli avlodlar tafakkurini bir maqsad – Vatan himoyasi yo'lida birlashtira olgan ofitserning donishmandligida.

**Maxsuda TURSUNBOYEVA,**

**Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

O'tmish sadosi



# O'LIMIDAN SO'NG QAHRAMONGA AYLANGAN “ELCHILAR”

yoxud Artur Konolli va Charlz Stoddart kim edi?

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

## BRITANIYA HUKUMATINING IKKIYUZLAMACHILIGI

Tarixiy manbalar o'sha paytda London va Kalkuttaning pozitsiyalari turlichaligini, ya'ni ular o'rtasida ichki kelishmovchiliklar bo'lganini ko'rsatadi. Jumladan, Britaniya Hindiston general-gubernatori lord Oklend Stoddartni Buxoroga yuborish haqida shaxsiy tashabbus ko'rsatgan, biroq u buning uchun Londondan rasmiy ruxsat va akkreditatsiya olmagan edi.

Oklend o'z xatlarida bu haqda quyidagicha yozadi: “Bu missiya ko'proq ma'lumot yig'ish uchun”.

O'sha paytda Londonda Britaniya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Buxoro amirligi bilan rasmiy aloqalar o'rnatishga hali vaqt erta deb hisoblagan edi. Chunki rasmiy London Markaziy Osiyo ishlariga aralashishdan biroz hayiqqandi, sababi bu paytda Angliyaning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari biroz chigal edi. Shu bois rasmiy London Stoddartga rasmiy status berishdan ataylab voz kechgan, degan taxminni ilgari surish biroz mantiqan to'g'ri bo'ldi. Aynan ushbu voqealar jarayonida London tomonidan “Plausible deniability” strategiyasi qo'llanilib, “rasmiy inkor etish imkonini” siyosati amalga oshiriladi. Agar ushbu missiya muvaffaqiyatli kechsa, Britaniya nufuzi kuchayadi. Agar missiya barbod bo'lsa, “Ular rasmiy vakillar emas edilar” deya, Britaniya hukumati javobgarlikdan qochadi.

**Britaniya hukumatinin Buxoro amirligiga maktub yubormaganining asosiy to'rtta taxminiy sababini keltirish mumkin:**

**1. Yuridik jihat:** Britaniya hukumati huquqiy nuqtayi nazardan Stoddart va Konolli rasmiy diplomatlar emasligini ta'kidlaydi;

Ular shaxsiy tavakkalchilik bilan Buxoro amirligiga borishgan; Britaniya hukumati ularni rasmiy elchilar deb tan olmagan; Parlamentda bu borada ochiq bahs-munozaralar bo'lgan.

Britaniya Parlament stenogrammalari (1843) ushbu dalillarni yanada tasdiqlaydi: “Bu ofitserlar Oliyhzrat Hukumatining akkreditatsiyalangan vakillari emas edilar, balki shaxsiy sifatda harakat qildilar, garchi Hindiston ma'murlari tomonidan yashirin ruhlantirish bo'lgan bo'lsa ham”.

**2. Geosiyosiy hisoblashish:** Britaniya Rossiya imperiyasi bilan ochiq konfliktga kirishni istamasdi. Agar Britaniya rasman Buxoro amirligiga maktub yuborsa, Rossiya imperiyasi buni ochiqchasiga dushmanlik deb qabul qilishi mumkin edi.

1839–1842-yillarda Yevropada Britaniya – Rossiya munosabatlari nihoyatda nozik edi. Boz ustiga bu paytda tashqi ishlar vaziri lord Palmerston Markaziy Osiyo masalasida o'ta ehtiyotlik bilan siyosat yurgizishni tavsiya qilgan edi.

**3. Afg'onistondagi falokat:** 1842-yilda Britaniya qo'shinlarining Kobuldagi mag'lubiyati hamma narsani tubdan o'zgartirib yuboradi. 16,500 Britaniya askarlari va fuqarolaridan atigi 1 kishi tirik qolgan edi. Bu Britaniya imperiyasi tarixidagi eng katta harbiy falokatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Ushbu fojidan so'ng Britaniya hukumati Markaziy Osiyodagi barcha faoliyatini to'xtatadi. Bu vaqtda esa Stoddart va Konolli Buxoro amirligida hibsdan edi, lekin London ularni “qutqarishga qodir emas” edi.

**4. Iqtisodiy omil:** Buxoro amirligi bilan qat'iy ziddiyatga borish Britaniyaga iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas edi. O'sha paytda Markaziy Osiyo

bo'ylab o'tgan savdo yo'llari hali kam ahamiyatli edi. Boz ustiga Angliya harbiy kuch ishlatishi uchun Buxoro amirligi juda uzoqda joylashgan edi. Qolaversa, Hindiston va Afg'onistondagi xarajatlar ko'payotgan edi.

## AMIR NASRULLOXONNING POZITSIYASI

Muhammad Hakim Xonning “Muntaxab at-tavorix” asarida qayd etishicha, o'sha paytda bu jarayonda Amir Nasrullaxon Britaniya hukumatidan Britaniya podshohidan rasmiy maktub (*farmon*), rasmiy sovg'alar (*hadyalar*) va to'liq diplomatik protokol talab qilgan edi. Stoddart va Konolli esa bularning hech birisini olib kelishmadi va boz ustiga maxfiy axborot yig'ish paytida qo'lga olindi.

Sayyid Kamol Buxoriyning “Ta'rix Salimiy” qo'lyozmasida keltirilishicha, Buxoro amirligi saroyidagi rasmiy qoidalar bo'yicha “Agar elchi rasmiy bo'lsa, u podshohdan yoki xondan maktub keltirishi shart. Stoddart va Konolli bunday maktub keltirmadilar, demak, ular rasmiy elchilar emaslar”. **Qolaversa, Muhammad Hakim Xonning “Muntaxab at-tavorix” asarida ham Stoddartning josuslik faoliyati bilan shug'ullangani shunday qayd etilgan:**

“Stoddart Buxoro amirligining qo'shinlari soni, qurol-yarog'lari, qo'rg'onlar joylashuvi haqida surishtirdi. U katta xaritalar tuzardi va barcha yo'llarni belgilardi”.

## NAVBATDAGI MISSIYA ORQALI BUXOROGA SAFAR: SABAB VA MAQSADLAR

Ushbu mash'um voqea sodir bo'lganiga oradan bir yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, Londonda uning aks-sadosi hali tinchib ulgurmagan edi. Kimdir ularning

vahshiylarcha qatl etilganini gapirsa, yana kimdir esa Tehronga ushbu xabarni olib kelgan fors yigitini yolg'on so'zlashda ayblab, ularning tirikligini bashorat qilardi. Chunki kapitan Artur Konolli va polkovnik Charlz Stoddart Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan qatl etilgani inglizlar tomonidan hali rasman tasdiqlanmagan edi. Ushbu vaziyatda esa Britaniya hukumati rasmiy diplomatik tashabbus ko'rsatishdan qochadi.

**Aynan shu bo'shliqni Jozef Vulf o'z tashabbusi bilan to'ldirishga harakat qiladi. Xo'sh, Jozef Vulf kim edi?**

Jozef Vulf bir vaqtning o'zida teologik tortishuvchi, afsonaviy sayyoh va avantyurist sifatida tanilgan shaxs edi. U 1792-yilning 2-mayida Germaniyaning Vulf qishlog'ida yahudiy oilada tug'iladi. Yoshligida katolik, so'ng protestant diniga o'tadi va pirovardida Anglikan cherkovining ruhoniysi bo'ladi.

Vulf 1820–1830-yillarda Yaqin Sharq, Fors va Hindistonning keng hududlarida sayohat qiladi. Bu safarlarda u arab, fors, urdu, ibroniy va boshqa tillarni o'rganadi. Uning missionerlik uslubi ham o'zgacha edi: u mahalliy aholi bilan ochiq muloqotga kirishadi va turli diniy an'analar haqida chuqur ma'lumot to'plar edi. Safarlari natijasi o'laroq, u 1838-yilda “Missionary Journal and Memoir” asarini nashr ettiradi.

Uning Buxoroga safarining rasman e'lon qilgan maqsadi – Konolli va Stoddartning tirik yoki o'lik ekanini aniqlash, agar tirik bo'lsalar, ularni ozod ettirish uchun Buxoro amiri Nasrulloxon bilan muzokara olib borish edi. U bu maqsad uchun Britaniya jamoatchiligidan moliyaviy ko'mak yig'adi va hatto “Buxoro missiyasi qo'mitasi” nomli guruh tashkil etadi.

Biroq tadqiqotchilar tomonidan uning safari ortida turgan qo'shimcha maqsadlar ham aniqlanadi. **Birinchidan**, Vulf Buxoro amirligi va unga tutash hududlar haqida geografik va siyosiy ma'lumot to'plashni niyat qilgan edi. **Ikkinchidan**, uning safari Britaniya ommasi fikrini Markaziy Osiyo masalasiga qaratish uchun xizmat qiladi. **Uchinchidan**, ayrim tarixchilar Vulfnung safari Hindiston bosh qo'mondonligi tomonidan bilvosita qo'llab-quvvatlanganini ta'kidlaydi.

Vulf 1843-yilning boshida Britaniya hukumatinin rasmiy maqomisiz, shaxsiy tashabbusi bilan yo'lga chiqadi. U Konstantinopol (*Istanbul*) orqali o'tib, Fors va Afg'oniston yerlaridan Buxoroga qarab yuradi. Bu marshrut o'sha davrda nihoyatda xavfli edi: qaroqchilar hujumlari, qishloqlar o'rtasidagi nizo va amirlik sarhadidagi nazorat har qadam uchun xavf tug'dirardi.

Buxoroga kirishda Vulf o'z shaxsiyatini yashirmaydi. Aksincha, u o'zini “Ingliz dini vakili” sifatida tanishtirib, amir Nasrulloxonga Britaniya qirolining salomlari bilan xat yo'llaydi. Bu o'ta jasoratli qadamning asl sababi Vulf ochiqlik orqali o'ziga himoya qidirdan edi:

agar u josus sifatida ko'rinmasa, qatl qilinmaydi deb o'ylagani, shubhasiz.

Amirlik hududiga kirishi bilan oq Vulf mahalliy aholi, savdogarlar va ulamolar bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Uning kundaligi va keyinchalik nashr etilgan xotiralaridan ko'rinadiki, aslida u yo'l davomida mintaqaning siyosiy vaziyati, Buxoro va Xiva o'rtasidagi munosabatlar, Rossiya imperiyasi ta'sirining rivojlanishi, savdo yo'llari va qal'alar, mahalliy aholining Britaniyaga va Rossiyaga munosabati haqida ma'lumotlar to'playdi.

Amirning huzurida Vulf butun saroy vakillari oldida baland ovozda o'z maqsadini bayon etadi. Aynan ushbu teatrlashtirilgan sahna uning hayotini saqlab qoladi: amirning yaqinlari Vulfni shunchaki aqldan ozgan darvishdek ko'rishadi va uni qatl etish o'rniga kamsitib ozod qilishni ma'qul topishadi.

Jozef Vulfning josuslik faoliyatiga aloqadorligi masalasi tarixchilar orasida turli qarashlarni keltirib chiqargan. Bu haqda turli yondashuvlar bor edi. Ular orasida eng ilmiy asoslangan pozitsiya shunday edi: Britaniya josus emas, lekin Britaniya imperiya manfaatlariga obyektiv xizmat qilgan. Uning faoliyati tarixchilar "bilvosita razvedka" yoki "imperiya ko'zi" deb ataydigan tushunchaga mos keladi. XIX asrda missionerlar, geograflar, savdogarlar va sayyohlar tez-tez raqib davlatlar haqida ma'lumot to'plab, uni rasmiy yoki norasmiy kanallar orqali o'z hukumatlariga yetkazganlar. Vulf ham shunday shaxs bo'lgan. U imperiya maqsadlarini anglamagan holda imperiya manfaatlariga xizmat qilgan.

Ha aslida mana shunday davrda Britaniya hukumati tomonidan ingliz ofitserlarining taqdirini aniqlashtirish niqobi ostida mintaqaga to'g'risida ma'lumot yig'ish uchun 1843-1844-yillarda Buxoroga ruhoniylar Jozef Vulfning missiyasi amalga oshirilgan edi. Qizig'i shundaki, hukumat doirasi tomonidan yuborilgan vakil bu safar ham rasmiy elchi emas edi – u xususiy shaxs sifatida jo'natilgandi. Britaniya hukumati unga ham rasmiy status bermaydi. Vulf safardan tirik qaytadi va maxfiy topshiriqni ado etish bilan birga qatl haqidagi ma'lumotlarni ham tasdiqlaydi. U Londonda 1845-yilda "Buxoro safari to'g'risida hikoya" nomli kitobini chop etadi.

## O'LDING – AZIZ BO'LDING!

Voqea sodir bo'layotganda, ya'ni 1838-1842-yillarda Stoddart va Konolli Buxoro amirligida hibsdan saqlanayotgan paytda Britaniya hukumati tomonidan "Ular rasmiy emas", deya e'tirof etiladi. **Jumladan, Britaniya Tashqi ishlar vazirligi o'sha paytda rasman quyidagicha bayonot bergan:**

Ular rasmiy elchilar emas; Britaniya hukumati javobgar emas; Buxoro ichki ishiga aralashmaymiz.

## Britaniya Parlament stenogrammalarida Lord Palmerstonning Palata Jamoalaridagi bayonoti ham quyidagicha bo'ladi:

"Stoddart Buxoroga Oliyhazrat Hukumatidan hech qanday rasmiy vazifasiz ketdi... U yerga Hindiston xizmatining ofitseri sifatida shaxsiy holatda bordi".

Rossiya arxivlaridagi hujjatlarda ham Britaniyaning Sankt-Peterburgdagi elchisi graf Klenrikard 1841-yilda Rossiya tashqi ishlar vaziri graf Nesselrodegga shunday degani saqlanib qolgan:

"Agar Stoddart Buxoroda qiyinchilikka duch kelsa, bu uning shaxsiy mas'uliyati. Britaniya hukumati uni rasman yubormagan".

## Biroq 1842-yil iyulda qatl xabari yetib kelgach, xuddi o'sha Palmerston va britaniya matbuoti tamomila boshqacha gapira boshladilar:

"Britaniya fuqarolari qatl etildi!", "Amir Nasrulloxon – varvar va qotil!"

"Buxoro sivilizatsiyalashgan dunyo qonunlarini buzdi!"

## Xususan, "The Times" gazetasining 1842-yil 5-oktabrdagi sonida shunday deyiladi:

"O'sha yovvoyi zolim Nasrulloxon tomonidan ikki britaniyalik ofitserning Buxoroda dahshatli qatl etilishi... Bu dahshatli jinoyat Oliyhazrat Hukumatining e'tiborini talab qiladi va qasos olishni talab etadi!"

E'tibor bering, bir vaqtlar tan olinmagan odamlar, o'limidan so'ng endi "britaniyalik ofitserlar"ga aylangandi. Nega? Chunki Britaniya imperiya ideologiyasiga ko'ra, britaniyalik – rasmiy yoki norasmiy bo'lsin – har qanday joyda himoyalinishi kerak, chunki Britaniya "sivilizatsiyalashgan mamlakat" edi. "Varvar" mamlakatlar britaniyalikka zarar yetkazsa, jazolanishi kerak.

## Oradan ancha vaqt o'tgach, Lord Kyorzon (keyinchalik Hindiston vise-qirol) ushbu voqealar haqida 1890-yilda shunday yozadi:

"Bitta britaniyalik jonining qadri minglab Osiyo aholisidan qimmat... Biz imperiya ekanmiz, imperiya o'z fuqarolarini himoyalaydi".

Demak, Stoddart va Konolli rasmiy emas bo'lsa ham, britaniyalik edi. Va bu yetarli edi!

## Jamoatchilik bosimi va media kompaniyasi

1842-yil oxiri – 1843-yil boshida London gazetalari Stoddart va Konolli voqearini milliy fojiaga aylantirishadi. Ya'ni gazetalarda Amir Nasrulloxonning karikaturalarini bosib chiqaradi – uni "yovvoyi dev" qilib ko'rsatadi. Stoddart va Konolli "qahramonlar va shahidlar" sifatida ulug'lanadi. London jamoatchiligi ularning yodgorliklarini qurishni talab qiladi.

Britaniyalik ruhoniylar Stoddartni "xristian shahidi" deb e'lon qiladi, chunki u islom dinini qabul qilishdan bosh tortgan va qatl etilgan edi.

## Parlamentda deputatlari esa Palata jamoalarida hukumatni tanqid qiladilar:

"Modomiki, Stoddart norasmiy yuborilgan bo'lsa, nega biz endi uning uchun qayg'urmoqdamiz? Agar u rasmiy bo'lsa, nega biz uni himoya qilmadik?"

## Tashqi ishlar vaziri Lord Eberdin bu tanqidga javoban shunday deydi:

"Garchi Stoddart rasmiy akkreditatsiya bilan yuborilmagan bo'lsa ham, u britaniyalik ofitser edi va uning qoni Britaniyani qayg'uga soladi".

**Paradoks:** Britaniya rasmiy javobgarlikdan qochadi, lekin moddiy va ma'naviy javobgarlikni o'z gardaniga oladi!

Bugungi zamonaviy dunyoda bo'lgani singari o'sha paytda Britaniya hukumati Stoddart va Konolli fojiasidan targ'ibot maqsadlarida foydalanadi. Targ'ibot yo'lida "sivilizatsiya va varvarlik" shior qilib baland ko'tariladi. Hatto britaniyalik mualliflar "Buxoro – taraqqiyotdan ortda qolgan, zalolatdagi mamlakat", "Amir Nasrulloxon – o'rta asrlarga xos zolim", "Markaziy Osiyo – Britaniya hukmronligini talab qiladigan hudud" kabi mavzularni ko'tarib shov-shuv ko'tarishadi.

Asli bunda Britaniyani Stoddart va Konollining fojiali taqdiri aslo qiziqitirmaydi. Ulardan shunchaki dastak sifatida foydalanayotgandi, xolos. Aslida maqsad esa oddiy – Markaziy Osiyoni Britaniyaning nazoratidagi hududga aylantirish edi. **Hatto tashviqotni britaniyalik sayohatchi Aleksandr Byornsnning 1843-yilda yozganlaridan ham ko'rsa bo'ladi:**

"Stoddart va Konolli o'limlari Markaziy Osiyo Yevropa rahnamoligi va nazoratini talab qilishini isbot qiladi. Bu varvar xonliklarni o'z holiga qoldirib bo'lmaydi".

Tarixiy ma'lumotlarda keltirilishicha, hatto bu narrativ keyinchalik Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi (1860-1880-yillar)ni oqlashda ham qo'llaniladi.

## GEOSIYOSIY O'YIN – ROSSIYA IMPERIYASIGA BOSIM

Garchi Britaniya Buxoro amirligiga harbiy jihatdan javob bera olmagan bo'lsa ham, voqeani shov-shuv qilib ko'tarish orqali Rossiya imperiyasini xabardor qilgan edi. Bu dalillarni Rossiya arxivlaridagi hujjatlar ham tasdiqlaydi. Britaniya diplomatlari **Sankt-Peterburgda Rossiya hukumati shunday deysing edi:**

"Agar Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini himoya qilishni boshlasa, biz buni dushmanlik deb hisoblaymiz".

**Geosiyosiy mantiq:** aslida Stoddart va Konolli qurbon qilinishi – Markaziy Osiyodagi barcha xonliklarga ogohlantirish edi. "Britaniyalikka zarar yetkazsangiz, oqibati yomon bo'ladi" xabari misolida. Rossiya ismepiyasiga esa "Markaziy Osiyo biz uchun muhim" signalining tasdig'i edi.

## Xulosa o'rnida shuni qayd etish kerakki, Britaniya siyosatining o'sha paytdagi haqiqati quyidagilarni ko'rsatadi:

Britaniya hukumati Stoddart va Konolli ataylab rasmiy statussiz qoldirdi, chunki:

1. Taktik ehtiyotkorlik – agar missiya muvaffaqiyatsiz bo'lsa, javobgarlikdan qochish mumkin edi.

2. Rossiya omili – ochiq diplomatik aloqa Rossiya imperiyasi bilan konfliktga olib kelishi mumkin edi.

3. Afg'oniston falokati – 1842-yilda Britaniya Markaziy Osiyodan chekinadi.

4. Iqtisodiy-harbiy cheklangan imkoniyatlar – Buxoro amirligi juda uzoqda, intervensiya qimmatga tushardi.

Fojiaviy paradoks shunda ediki, Stoddart va Konolli Britaniya imperiyasi manfaatlarini uchun xizmat qilishdi. Lekin shunday bo'lsa-da, davlat ularni rasman "o'z odamlari" sifatida tan olmadi. Aslida esa ular imperiya siyosatining qurboni bo'lishdi, o'z navbatida, imperiya esa ularni inkor etdi. Bu holat XIX asrdagi imperiya siyosatining sinizmini yaqqol ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarining tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, garchi Stoddart va Konolli Buxoro amirligi hududlarida josuslik qilgan bo'lsa-da, amir Nasrulloxon ularni o'ldirishga shoshilmaydi. Aksincha, amir geosiyosiy murakkab bir davrda ularni uzoq vaqt mobaynida ushlab turish orqali ingliz razvedkachi ofitserlaridan o'z mamlakatining siyosiy maqsadlarida foydalanishga harakat qiladi. Chunki 1840-yillarga kelib, Markaziy Osiyo davlatlariga Britaniyadan ham ko'ra, Rossiya imperiyasining xavfi ortib borayotgan edi. Ko'pchilik manbalarda Buxoro amirligi o'sha paytda Rossiya imperiyasiga nisbatan iliq munosabatda bo'lganini ko'rsatadi.

Aksincha, Buxoro amirlari Rossiya imperiyasiga o'zining josuslarini yuborish orqali u yerdagi xavfdan allaqachon xabar topib ulgurgan edi. Shu bois ular rasman rus hukumati bilan iliq munosabatda bo'lishiga qaramay, aksincha, maxfiy tarzda ushbu xavfni bartaraf etishga harakat qilishgan. Stoddartni uzoq vaqt hibsdan saqlash orqali vaqtni cho'zib, Angliya bilan shartnoma tuzishga harakat qilgani ham aslida shundan dalolat. Ammo Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalarining buzilishidan xavotirlangan Angliya bunga ochiqdan ochiq jur'at qila olmaydi.

Qolaversa, Buxoro amirligi bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga hali vaqtlilik deb hisoblagan. Chunki Britaniya o'zi kutganidek, Afg'onistonda muvaffaqiyatga erisha olmagan edi. Ushbu harakatlardan natija bo'lmagach, 17-iyun 1842-yilda ingliz josuslari Stoddart va Konolli amir Nasrulloxon farmoniga asosan, qatl qilingan edi.

**Komiljon HASANOV,  
O'z FA tarix instituti  
katta ilmiy xodimi**

Chegara qo'shinlarida

# ASL VATANPARVARLIKNING mohiyati

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida 2026-yil chaqiruvidagi muddatli harbiy xizmatchilarning qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yanada yuksaltirish, ularni yurt himoyasiga daxldorlik hissi bilan tarbiyalash maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib kelinmoqda.



Xususan, Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan tadbir "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" mavzusida tashkil etilib, unda uzoq yillar davomida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash yo'lida o'z fidoyiliklarini namoyon etgan faxriylar, xizmat faoliyati hamda sport musobaqalarida yuqori natijalarni qayd etib kelayotgan sarhadlarimiz himoyachilari ishtirok etdi.

Yuksak vatanparvarlik targ'ibotiga bag'ishlangan mazkur uchrashuv davomida milliy armiyamiz yoshlar uchun jasorat, matonat va bilim maskani sifatida e'tirof etilib, uning saflariga kelib qo'shilayotgan har bir o'g'lon ona yurtini ko'z qorachig'idek asrashi zarurligi, Vatanning yuksalishi uchun bor bilim va mahoratini ishga solishi kerakligi haqida to'xtalib o'tildi.

Jizzax va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan tadbirlar davomida ham chegara xizmati uchun jismonan sog'lom, ruhan tetik, o'tkir nigohli, alpomat va chiniqqan yigitlar askarlikka saralab olinishi alohida ta'kidlanib, harbiy qism va bo'linmalarda yaratilayotgan zamonaviy shart-sharoit va imkoniyatlar, muddatli harbiy xizmatchilar uchun berilayotgan imtiyozlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Ayniqsa, jangovar xizmat faoliyatini o'tash mobaynida yuqori natijalarga erishgan harbiylar tomonidan davlat chegarasi buzilishining oldini olish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqidagi voqeyi hikoyalar barchada katta taassurot qoldirdi.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida bo'lib o'tgan tadbir ham harbiy xizmatning sharafiga va mas'uliyati nechog'li katta ekanini yoshlarga tushuntirishdan boshlandi. Qiziqarli savol-javoblar, videoroliklar namoyishi hamda badiiy chiqishlar uchrashuvga yanada ko'tarinki kayfiyat ulashgan bo'lsa, farzandi Buxoro viloyatida muddatli harbiy xizmatni namunal tarzda o'tayotgani sababli DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonining tashakkurnomasi sohibi bo'lgan Mirabbos Mirahmedovning faxr to'la fikrlari barchani birdek ruhlantirib yubordi.

Shu kabi uchrashuvlardan yana biri Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida ham ko'tarinki kayfiyatda tashkil etildi. Uzoq yillar davomida ko'plab shogirdlarni tarbiyalab, Vatan sarhadlari himoyasiga yo'llagan iste'fodagi podpolkovnik Abdumalik Uzoqovning bosib o'tgan xizmat va hayot yo'li, o'zi hamda shogirdlarining erishgan natijalari alohida e'tirof etilgach, uning bo'lajak chegarachilarga tilaklari tinglandi. Tadbir davomida davlat mukofoti sohiblari, sportchi harbiylar ham ishtirok etib, o'zlarining erishgan natijalari va



muvaffaqiyat sari bosib o'tilgan yo'lning mas'uliyati haqida so'zlab berdi.

Bir so'z bilan aytganda, butun respublikamiz bo'ylab barcha chaqiriluvchilar bilan tashkil etilayotgan shu kabi tadbirlar ularning ma'naviy olamini boyitishga, iroda va matonatlarini toblab, har qanday qiyinchilikka ruhan tayyor bo'lishga undashi, shuningdek asl vatanparvarlikning mohiyati so'zlar bilan emas, balki amalda isbotlanishini yaxshi tushunishlariga imkon yaratayotgani bilan ahamiyatlidir.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Sodiqlik onti

# Vatanga sadoqatning MUQADDAS AHDI



Vatan oldidagi burchini halol bajarishga bel bog'lab, vijdoni, or-nomus va sha'nini o'rtaga qo'yib, O'zbekiston Respublikasiga, xalqiga va Prezidentiga bir umr sodiq bo'lishga, har qanday mashaqqatli sinov va qiyinchiliklarda ham el-yurtining yuksak ishonchini oqlashga yaqinlari va keng jamoatchilik guvohligida tantanali ravishda ont ichdi.

– Bugun o'g'limiz G'ayratov Alimardon va oilamiz uchun unutilmas kunlardan biri bo'ldi, – deydi Dildora Ergasheva. – Chunki farzandimiz ko'p yillik orzusiga erishdi. Qisqa vaqt ichida bu yerdagi yigitlar tajribali ofitser va serjantlar rahbarligida harbiy sohaning turli jihatlarini o'zlashtirib, dastlabki ko'nikma va mahoratga ega bo'lishgani bizda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, askarlarning intizomi, harakatlari va chiqishlarini ko'rib, ko'nglimiz faxr va quvonchga to'ldi. Bir oy ichida farzandlarimizda ro'y bergan ijobiy o'zgarishlarni ko'rib, rostdan ham hayratga tushdik. Tadbirning yuqori saviyada, puxta va chiroyli tashkil etilgani barchamizni xursand qildi.

Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida joylashgan aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlashdek mas'uliyatli vazifani bajarish ostonasida turgan yurt o'g'lonlari ham safdoshlari qatori Vatanga sadoqat qasamyodini qabul qildi. Bu lahza ularning hayotida nafaqat muhim burilish nuqtasi, balki yurt oldidagi muqaddas burchini anglab yetish, mas'uliyatni his etish onlari sifatida muhrlandi.

Tantanali marosim davomida askarlar saf tortib, yuksak intizom va jipslik namoyon etdi. Davlat bayrog'i ostida yangragan qasamyod so'zlari ularning qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Mazkur tadbirlar nafaqat yosh askarlar uchun, balki ularning ota-onalari va keng jamoatchilik uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Unda yurt himoyasiga tayyor, irodali va mard o'g'lonlarning shakllanayotgani yana bir bor o'z ifodasini topdi.

Haqiqiy bayramga aylanib ketgan tadbirlar davomida el suygan san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashdi.

**Leytenant Mansurbek  
JABBOROV,  
"Vatanparvar"**

Vatanga qasamyod – har bir askar hayotidagi eng mas'uliyatli va unutilmas lahzalardan biri. Bu nafaqat tantanali marosim, balki qalbdagi tug'ilgan sadoqatning so'zga aylanishi, Vatan himoyasi yo'lida berilgan muqaddas ahddir. Shu ondan boshlab, yosh yigitning qalbida yurtga bo'lgan muhabbat, xalq oldidagi burch va mas'uliyat tuyg'ulari yanada mustahkamlanadi.

Askar qasamyod qabul qilar ekan, u nafaqat bugungi tinchlikni asrashga, balki kelajak avlodlarga osuda hayotni meros qilib qoldirishga ham va'da beradi.

Ayni kunlarda yurtimizdagi kuch tuzilmalarida o'z yigitlik burchini ado etayotgan muddatli harbiy xizmatchilarning qasamyod qabul qilish marosimlari bo'lib o'tmoqda. Jumladan, Toshkent shahridagi Davlat xavfsizlik xizmatiga qarashli aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash harbiy qismlarining birida xizmatga yangi chaqirilgan muddatli harbiy xizmatchilarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimi tantanali ravishda o'tkazildi.

Tadbir avvalida Vatan ozodligi va tinchligi yo'lida halok bo'lgan qahramonlar xotirasiga hurmat va ehtirom ko'rsatilib, harbiy qism hududida joylashgan xotira monumnti poyiga gul qo'yildi.

Marosimda Davlat xavfsizlik xizmati raisi o'rinbosarlari, faxriylar, harbiy xizmatchilar,

askarlarning ota-onalari, yaqinlari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar ona Vatanni qo'riqlash kabi sharaflari vazifani o'zining eng oliy burchi deb bilgan askarlarni samimiy qutlab, xizmat davomida ularga ulkan zafarlar tiladi.

Shundan so'ng tadbirning asosiy qismi – qasamyod qabul qilish marosimi boshlandi. Askarlar buyuk ajdodlarning pok ruhlari oldida,



"Harbiy qism yettiligi"

# KELAJAKKA XIZMAT qiluvchi tizim

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugining Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismda amalga oshirilayotgan "Harbiy qism yettiligi" faoliyati bugungi kunda nafaqat harbiy tizim doirasida, balki keng jamoatchilik hayotida ham muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tashabbus, eng avvalo, inson taqdiri, yoshlar istiqboli va ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qilayotgani bilan alohida e'tiborga loyiq.

Mazkur tizim doirasida harbiy qismga birlashtirilgan yoshlar bilan ishlash mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilgan. Xususan, ularning ijtimoiy muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, ruhiy barqarorligini ta'minlash hamda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tizimli va maqsadli yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir.


Ayniqsa, har bir yoshga individual yondashuv asosida

ish olib borilayotgani diqqatga sazovor. Ularning oilaviy muhiti, ijtimoiy holati, ruhiy kechinmalari chuqur o'rganilib, har bir holatga alohida yechim topishga intilish kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarda ishonch, ertangi kunga umid va jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirmoqda.

Qism komandiri rahbarligida tashkil etilgan bu faoliyat nafaqat muammolarni bartaraf etish, balki ularning oldini olish, yoshlarning

ijtimoiy faolligini oshirish, ularni turli xavf-xatarlardan asrashga ham qaratilgan. Shu jihatdan "Harbiy qism yettiligi"ni yoshlar bilan ishlashning samarali va zamonaviy modeli sifatida baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Harbiy qism yettiligi" faoliyati bu oddiy tashkiliy tadbir emas, balki inson taqdiriga daxldor, jamiyat barqarorligiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy mexanizmdir.



Ushbu tizim orqali yoshlarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik ularning kelajakda mustaqil, mas'uliyatli va vatanparvar shaxs bo'lib yetishishida mustahkam poydevor yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, barqaror jamiyat va kuchli davlat qurish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

**III darajali serjant Akbar AHMEDOV,**  
Termiz garnizoni

Hayot gultoji

## Baxtli oila — kuchli armiya poydevori

Harbiylik bu shunchaki kasb emas, balki yuksak mas'uliyat, matonat va Vatanga sadoqat ramzidir. Har bir harbiy xizmatchi yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi uchun o'z hayotini xavf ostiga qo'yib xizmat qiladi. Ularning qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat, burchga sadoqat va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi mujassam. Ana shu yuksak fazilatlar harbiylarni jamiyatning eng ishonchli tayanchiga aylantiradi.

Albatta, harbiy xizmatchining oilasi ham bu sharafli yo'lining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular harbiyning ishonchli suyanchi, ruhiy quvvati va sabr-matonat manbai bo'lib xizmat qiladi. Harbiy oilalarda vatanparvarlik, fidoyilik va sadoqat ruhi yanada chuqur his etiladi. Chunki bunday oilalar nafaqat o'z yaqinlari, balki butun Vatani osoyishtaligi yo'lida yashaydi va xizmat qiladi.

Men xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis sifatida, bir haqiqatni chuqur anglab yetganman: oila bu faqatgina ijtimoiy birlik emas, balki Vatani tinchligi va armiya qudratining mustahkam poydevori. Chunki har bir harbiy xizmatchining jasorati, matonati va sadoqati ortida uning mehribon oilasi, sabr-toqati va duosi turibdi.

Shu bois Sharqiy harbiy okruga harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan ishlash masalasi doimo ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biz uchun har bir oila alohida e'tibor, g'amxo'rlik va mas'uliyat demak. Zero oila mustahkam bo'lsa, harbiy xizmatchi ham o'z burchini sidqidildan, xotirjam ado etadi.

Har yili harbiy qismlarda ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Ularda oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, vafo va sadoqat kabi insoniy fazilatlar keng targ'ib qilinadi. Bu tadbirlar nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ularning oila a'zolari o'rtasida ham o'zaro ishonch va hamjihatlikni yanada mustahkamlamoqda. Xususan, oila a'zolarining bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish va tadbirkorlikka jalb etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda minglab oila a'zolari mehnat bilan band bo'lib, ayrimlari o'z biznesini yo'lga qo'ygani, biz uchun katta yutuqdir. Chunki iqtisodiy barqarorlik oila mustahkamligining muhim omilidir.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar oilalaridagi muammolarni joyida hal etish maqsadida manzilli o'rganishlar muntazam yo'lga qo'yilgan.

Yordamga muhtoj oilalarga amaliy ko'mak ko'rsatilib, ularning ijtimoiy holatini yaxshilash bo'yicha aniq choralar ko'rilmoqda.

Bir jihatni alohida ta'kidlashni istardim, harbiy oilalar jamiyatimiz uchun ibrat maktabidir. Ularda sabr, matonat, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ulari uyg'unlashgan. Bunday oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularga munosib sharoit yaratish nafaqat xizmat vazifamiz, balki vijdoniy burchimizdir.

Biz o'z faoliyatimizda "Baxtli oila – kuchli armiya poydevori" tamoyiliga tayanamiz. Chunki oilasi tinch, ko'ngli xotirjam harbiy xizmatchi Vatani himoyasida yanada matonatli va jasur bo'ladi.

Oila mustahkam bo'lsa, Vatani qudratli bo'ladi. Bu haqiqatni biz har kunlik amaliy ishlarimiz orqali isbotlashga intilib kelmoqdamiz. Harbiy xizmatchilarning va ularning oilalariga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik esa bundan buyon ham faoliyatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

**Madinaxon MAMAJONOVA,**  
Harbiy qism xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisi



# She'rdan yaxshi nimang bor?!

Rosti, bu dunyodan she'rdan go'zalroq hodisa yo'q, go'yo. Balki, shoir bo'lganimiz uchundir, negadir she'rdan-da go'zalroq huzur topavermaymiz. Aslida, o'sha go'zallikni izlab, bu dunyodan o'tib bormoqdamiz. Dunyodan axtarganlar ham, dunyoni axtarganlar ham hech nima topolmaydi. Haq va haqiqat yo'lida safar qilayotgan yo'lovchilar bu shoirlardir. Mahbubini axtarish yo'lida chekkan oh-u zorlari she'rga aylanib qoladi. Ijod esa odamga huzur bag'ishlaydi, o'sha paytlar ijodkor uchun she'rdan yaxshiroq, huzurliroq narsa bo'lmaydi bu dunyoda.

Shoir "O'tinch" she'rida shunday deydi:

*Gardunning ishvasi bo'lganda abas,  
Qalbinga iymondan sochib qo'y urug'.  
Cho'ntaklarim bo'm-bo'sh, uyga qaytaman,  
Tangrim, huzuringga bormayin quruq!*

Go'zal she'r-a? Haqqa chin oshiq odamning o'tinchi bu. Bu dunyoning qancha eshiklariga quruq qo'lda bormadik. Ba'zida oilamizga ham to'rtta non olib borishga qurbimiz kelmay qoladi. Xudo yolg'izlatib qo'ymaydi, doim bir yechimi bo'lgan bu dunyo ishlarining. Ammo Yolg'izning yoniga borganimizda quruq qo'l bilan turish judayam og'irdir. Yaxshi amallar, yaxshiliklar bilan yorug' yuzda yuzlashishga nima yetsin, deysiz. Bu dunyoning o'tkinchi ekanini anglagan shoirimiz esa shu tuyg'ularni she'rga soladi:

*Cho'ntaklarim bo'm-bo'sh, uyga qaytaman,  
Tangrim, huzuringga bormayin quruq!*

Shoirning kitobga jamlangan ko'ngil bitiklarini birining o'rniga boshqasini qo'yib bo'lmaydi, hammasi go'zal yozilgan. Kitobni o'qir ekansiz, o'z so'zida mardona turgan odamni ko'rasiz. Yolg'ondan, hayotning maydachuyda ishlariga parvo qilmay, boshini mardona tutib ketayotgan shoirni ko'rasiz. Ravshan Haqmurudning "Hadik" nomli kitobini o'qishni barcha ijodkorlarga tavsiya etaman.

So'zimni shoirning yana bir ajoyib she'ri bilan yakunlayman.

*Nafrat eski, muhabbat eski,  
Dard eskidir, tabobat eski.  
Borliq menga tobe emaski,  
Xudolikka da'vo aylasam.*

*Nay eskidir, navo ham eski,  
May eskidir, mavo ham eski.  
Har ishq degan roviy emaski,  
Tariqatin bajo aylasam.*

*Din eskidir, diyonat eski,  
Vafo eski, xiyonat eski.  
Qarshimdagi Usmon emaski,  
O'zni tiyib, hayo aylasam.*

*Vazn eski, turoq ham eski,  
Ko'ksimdagi firoq ham eski.  
Bu gaplarim yangilikmas-ku,  
Shoirlikka da'vo aylasam.*

**Muhammadali G'AFFOROV,**  
"Vatanparvar"

**Qachon yaxshi she'r dunyoga keladi? Shoir qaysi holatda go'zal she'rlar yozadi? Qaysi asaringiz sizni ommaga olib chiqadi, buni bilmaysiz. Yomon she'r yo'q dunyoda, yomon odam ham. Endi qo'lga qalam olib, onasining mehribonligi haqida yozayotgan bolakaydan yaxshi ijodkor yo'q, aslida. Uning hamma aytgani samimiy, hamma ko'rgani rost. So'zlarga ortiqcha zeb bermaydi, so'z o'yini qilib tashbehshunoslik bilan shug'ullanmaydi, yuragini shundoq olib qo'lingizga tutadi. "Onajon, sizni yaxshi ko'raman!" deya.**

Endi ayting-chi, kim yaxshi shoir? Albatta, bolaligini o'zida olib qolgan shoir eng yaxshisi. Kecha bir shoir akam bilan suhbat qurdik. Osmon haqida, gullar, ko'klam haqida. Yoshi bir yerga borib qolgan o'rta yosh yigitlarning bunaqa suhbatlari ensangizni qotirishi mumkin, ammo suhbat uchun tabiatdan go'zalroq misol ko'rmayman. Osmonga to'yib-to'yib termilib, biror adirdan umbaloq oshish haqidagi telba-teskari xayollar ham surdik. Telba-teskari desam, noto'g'ri bo'lar, bolalarcha xayollar edi, u. Yoshlikni xotirlab, uzun yo'limizni anchayin yaqinlashtirdik.

Qishloqda o'sgan odamlarning xotiralari ham tanish, tuyg'ulari ham o'xshash bo'ladi. Hamma ari uyasini qo'zg'agan, adirda mol boqqan, dehqon poliziga o'g'irlikka tushgan, xullas qishloq bolalarining aksariyatining sho'xliklari o'xshash bo'ladi. Suhbat uchun esa bolalikdan go'zalroq mavzu yo'q. Kun bir mahalga yetganda uy-uyiga ketish oldidan qo'limga bir kitob tutqazdi. Qarasam, akaning o'zining kitobi ekan. Shoir-da yangi kitobining chiqqanini aytishni ham unutib, bolalikning olis xotiralarida g'arq bo'lib ketibdi. O'zim ham suhbat haqida shuncha gapirib, shoirni tanishtirmabman. **"Vatanparvar" gazetasining "Keling, kitob o'qiymiz!" ruknining bu galgi mehmoni so'zi va amali to'g'ri shoir Ravshan Haqmurud. Inson shoir.** She'ri o'zidan samimiy, o'zi she'riday samimiy akam. Ravshan Haqmurud bilan bundan 4 yil muqaddam tanishganman. Toshkentga endi kelib, o'zimni axtarib yurgan kezlarim to'g'ri yo'l

ko'rsatgan akalarimdan biri. Yaxshi she'rning xaridori, hayotini adabiyotga bag'ishlayotgan inson, yosh shoirlarning valiyi. O'ziga aytgan maqtoqlarimni shu yerda yakunlab, so'ziga aytajaklarimni boshlasam.

*Shamol – daydi sozanda,  
Ohang sochib o'tmoqda.  
Uxlay desam, azonda,  
She'r xumori tutmoqda.*

Shoirlar tunning odamlari eng go'zal she'rlar ham tunda yoziladi. Oqshom, hammayoq jimjit, gullarning shitiri, daryoning oqimi, shamolning esishi hammasi bir bo'lib, go'zal qo'shiq boshlashadi. Tabiatning bu hodisalariga esa ko'p hollarda ijodkorlar guvoh bo'ladi. Shoirimiz ham tunni she'r ishqida bedor o'tkazib, tabiatning kuylayotgan qo'shiqlariga guvoh bo'lib qolgan. Ko'zlariga tiqilib turgan uyquni esa she'rning xumori olib qo'yyapti. Tabiatning bu hodisalarini anglab qolgan shoir uchun bitta she'r yozmasdan uyquna ketish o'ziga xiyonatday go'yo lahzani ayni dam ushlamasa, uyg'ongach bu tuyg'ulardan asar ham qolmaydi. Shoirimiz esa hammasini anglagan odam sekingina pichirlamoqda: "Uxlay desam, azonda she'r xumori tutmoqda". Shu she'rning yakuni juda ajoyib xotima topgan. Bu dunyoning soxta go'zalliklaridan, shaharning g'ala-g'ovuridan charchagan kezlarim doim takrorlab yuraman.

*Mudrayman erta tongda,  
Hech biri bosmas xumor.  
Tangrim, ushbu dunyongda  
She'rdan yaxshi nimang bor?!*

Sport musobaqasi

# APREL – MUSOBAQA – G‘ALABA!



April. Yashil tabiat. "Forish" tog' poligoni. Bahor faslida go'zallikka burkangan maskan. Yangi ochilgan maysalar, yashillikka chulg'angan adirlar, uzoqdan jilvalanib ko'ringan tog' bag'irlari hududga o'zgacha ruh bag'ishlagan. O'zining tabiiy sharoiti, balki murakkab relyefi, keng imkoniyatlari bilan amaliy mashg'ulotlar maydoniga aylangan hudud harbiy sport musobaqalarini o'tkazish uchun ham yana bir bor o'zini namoyon qildi.



Ana shu manzilda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi terma jamoasini shakllantirish maqsadida saralash chempionati o'tkazildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar

o'rtasida bo'lib o'tadigan nufuzli sport musobaqalariga munosib jamoani saralab olish yo'lida tashkil etilgan bellashuvlar yuqori saviyada yakunlandi.

Harbiy sportchilar musobaqa oldidan jiddiy tayyorgarlik ko'rgan. Jarayonlar davomida qayd etib borilgan natijalar buni tasdiqlaydi. Ishtirokchilarning nigohida mas'uliyat, harakatlarida puxta reja sezilib turadi. Bellashuvlarda esa toblangan jasorat, chiniqqan irodalar to'qnashuvi o'z aksini topdi. Mazkur musobaqada ular nafaqat o'zaro kuch sinashdi, balki har bir natija ortida

turgan mehnat, sabr va matonatni ham namoyon etib bordi.

– Bu oddiy bellashuv emas – bu harbiy tayyorgarlikning haqiqiy sinovidir, – deydi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Azizbek Muhammadjonov. – Bunda har bir yo'nalishda kuch bilan birga chidamlilik, tezkor fikrlash talab etiladi. Ayniqsa, ko'pkurash va yugurish bosqichlari nihoyatda murakkab. Lekin aynan shunday sinovlar

bizni chiniqtiradi, jamoa ruhini mustahkamlaydi. Jarayonlarda ishtirok etishning o'zi ham katta tajribadir.

Chempionat davomida ishtirokchilar harbiy ko'pkurash, harbiy beshkurash, o'q otish sporti, armiya qo'ljangi, tosh ko'tarish kabi yo'nalishlarda o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi. Har bir sport turi o'ziga xos talab va murakkabliklarga ega bo'lib, bunda sportchilardan jismoniy hamda ruhiy barqarorlik talab etildi.

Ta'kidlash lozimki, musobaqa davomida harbiy ko'pkurash bahslari, ayniqsa murosasiz kechdi. Ushbu yo'nalishda 100 metr va 3 kilometr masofaga yugurish, granata uloqtirish hamda yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish kabi sinovlar sportchilarning tezligi, aniqligi va chaqqonligini sinovdan o'tkazdi. Ba'zi ishtirokchilar uchun bu bosqich haqiqiy chidamlilik imtihoniga aylandi. O'q otish sporti esa alohida e'tiborga molik. Bunda harbiylar meraganlik mahoratini namoyish etgan holda PM-3 va AK-3 qurollaridan nishonga qarata o'q uzdi. Ushbu sport turida qo'l titramasligi, nafasni to'g'ri boshqarish va aniqlik hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi.





– Natijalar shuni ko'rsatadiki, ular puxta tayyorgarlik bilan kelgan, – deydi mayor Bekzod Dadajonov. – Ta'kidlash lozim, jarayonlar davomida chidamlilik va iroda borasida juda yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Har bir yo'nalishda haqiqiy raqobat muhiti sezildi. Bu esa musobaqaning asosiy yutug'i deyishimiz mumkin.

Eng qiziqarli va tomoshabop bahslardan biri – armiya qo'ljangi bo'ldi. Turli vazn toifasidagi ishtirokchilar bir-biri bilan kuch sinashar ekan, bu yerda nafaqat jismoniy qudrat, balki tezkorlik va taktik fikrlash ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Har bir jang o'ziga xos drammatizmga ega bo'lib, tomoshabinlarni befarq qoldirmadi.

Tosh ko'tarish va suzish bahslari esa ishtirokchilarning ichki zaxira kuchlarini namoyon etgan sinovga aylandi. Aynan suvda kechgan bellashuvlarda eng kuchlilarning chidamlilik va ruhiy barqarorligi yaqqol namoyon bo'lib bordi. Sportchilar go'yo tishining kovagida asragan kuchini aynan shu bosqichlar uchun saqlab qo'ygandek taassurot qoldirdi.

– Bu yerda har kim o'z imkoniyatining eng yuqori darajasini namoyon etishga intildi, – deydi kapitan Nuriddin Rahmatov. – Musobaqa shunchaki kuch sinovi emas, balki harbiy xizmatchining har tomonlama tayyorgarligini baholovchi muhim mezonidir. Har bir yo'nalish alohida sinov



bo'lib, u nafaqat jismoniy holatni, balki qaror qabul qilish tezligi, chidamlilik va ichki intizomni ham namoyon etadi. Bunday bellashuvlar eng munosib sportchilarni saralab olishda muhim o'rin tutadi. Bu kabi jarayonlar orqali biz tayyorgarlik darajamizni baholab, keyingi bosqichlar uchun aniq xulosalar chiqaramiz.

Musobaqa o'z mohiyatiga ko'ra, doimo kuchlilarni saralab, eng munosib ishtirokchilarni aniqlashga xizmat qiladi. Har qanday bellashuv yakunida, albatta g'oliblar aniqlanadi, chunki sport bu nafaqat ishtirok, balki natija va yutuq sari intilishdir. Mazkur chempionatda ham har bir ishtirokchi g'alaba uchun bor kuch va mahoratini ishga soldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida Maxsus operatsiya kuchlari qo'mondonligi jamoasi birinchi o'rinni qo'lga



kiritdi. Toshkent harbiy okrugi jamoasi ikkinchi, Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasi esa uchinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, saralash chempionati doirasida o'tkazilgan turlar bo'yicha ham g'oliblar e'lon qilindi. Unga ko'ra, harbiy beshkurash sporti bo'yicha kichik serjant Bekzod Toshpo'latov yuqori natijalarni qayd etib, tur g'olibi deb topildi. Ayollar o'rtasida o'tkazilgan o'q otish sporti bo'yicha PM-3 yo'nalishida III darajali serjant Dilnoza Mamasaidova hamda AK-3 yo'nalishida kichik serjant Sayyora Boymanova eng mohir meraganlar sifatida e'tirof etildi. Erkaklar o'rtasida bo'lib o'tgan bahslarda esa PM-3 yo'nalishida katta leytenant Shamsiddin Boynazarov, AK-3 yo'nalishida kichik serjant Jamoliddin Kamolov g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shu bilan birgalikda ko'pkurash, tosh ko'tarish hamda armiya qo'ljangi sporti turlari bo'yicha ham turli vazn toifalarida yuqori natijalarni qayd etgan harbiy xizmatchilar esdalik sovg'alar bilan munosib taqdirlandi.

Aytib o'tish joiz, "Forish" tog' poligonida o'tkazilgan ushbu saralash chempionati harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini mustahkamladi, jamoaviy birlik ruhini yanada kuchaytirdi. Eng muhimi, bu yerda saralangan eng kuchli, eng irodali sportchilar endilikda xalqaro maydonlarda mamlakat sharafiga himoya qilish uchun saflarga qo'shiladi. Mazkur musobaqalar harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi, matonati va g'alabaga bo'lgan qat'iy intilishini yana bir bor namoyon etdi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
"Vatanparvar"



Armiya va yoshlar

# HARBIY QISMDA bir kun



Zarafshon shahrida joylashgan Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qism madaniyat markazida yoshlar kuni munosabati bilan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi. Unda harbiy qism komandiri, Zarafshon shahar hokimi, hamkor tashkilotlar vakillari hamda umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida rahbarlar va yoshlar o'rtasida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar oldi. Shundan so'ng mehmonlar harbiy qismda harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, madaniyat markazi, muzey va kutubxona faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarga zamonaviy qurol-aslahalar, o'quv-moddiy baza hamda harbiy texnikalarning imkoniyatlari va qo'llanilish tartibi haqida ma'lumot berildi.

Tadbirning ikkinchi qismi harbiy qism dala-o'quv maydonida davom etdi. Bu yerda o'quvchilar uchun maxsus amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Yoshlar turli o'quv nuqtalarida jangovar qurollar va texnikalarni bevosita

ko'zdan kechirdi. Shuningdek, ular amaliy mashqlarda ishtirok etib, qurollarni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari, harbiy-taktik harakat mashqlarini bajarishdi.

Mashg'ulotning eng hayajonli qismi amaliy o'q otish jarayoni bo'ldi. Unda ilk bor o'q otish mashqida qatnashgan o'quvchilar 100 metr masofadan nishonlarga qarata o'q uzib, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rdi.

Mazkur tadbir yoshlarning harbiy sohaga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash hamda kelajakda sharaflilik kasb egalari bo'lishlariga turtki berishda muhim qadam bo'la oladi.

Ko'rik tanlov

## JAMIYAT MUSTAHKAMLIGI ASOSI



Jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam poydevori bo'lgan sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda harbiy xizmatchilar oilalarida yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish, yosh avlodni turli yot g'oyalar ta'siridan asrash hamda ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash va oilaviy qadriyatlarni yanada mustahkamlash maqsadida Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan harbiy qismda "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasiman" shiori ostida "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovining qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlov davomida har bir oila faqatgina jismoniy chaqqonlik yoki bilimini emas, balki o'zaro hamjihatlik, tezkor qaror qabul qilish, oilaviy birdamlik va ma'naviy barqarorlik kabi muhim fazilatlarini ham namoyon qilishga muvaffaq bo'ldi.

Ayniqsa, "Kuch birlikda" shartlarida ishtirokchilarning jamoaviy harakatlari, "Birinchi tibbiy yordam" shartida esa amaliy ko'nikmalari va tayyorgarlik darajasi yuqori baholandi. "Osh chempionati" kabi shartlarda esa oilalarning birgalikdagi mehnati va o'zaro hamkorligi tomoshabinlarning alohida e'tiborini tortdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, kichik serjant Davron Murodovlar oilasi barcha shartlarda faol ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritgan holda g'oliblik sharafiga erishdi va tanlovning Mudofaa vazirligi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindor oilalarga diplom hamda pul mukofotlari topshirildi.

## Qonun ustuvorligi

Oila – jamiyatning mustahkam poydevori, inson kamoloti shakllanadigan muqaddas maskan. Konstitutsiyamizda ham oilaga alohida e'tibor qaratilishi bejiz emas. Unda oila institutini muhofaza qilish, bolalar huquqlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Ammo savol tug'iladi: qonunlarda mustahkamlangan ushbu normalar hayotda to'liq o'z aksini topmoqdam?

Afsuski, bugungi kunda voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'rvonlik va tazyiq holatlari nafaqat jahonda, balki yurtimizda ham kuzatilayotgani jamoatchilikni jiddiy o'ygatmoqda. Bolalarga nisbatan sodir etilayotgan har qanday zo'rvonlik – bu faqat bir oila yoki bir shaxsning muammosi emas, balki butun jamiyatga berilgan og'ir zarbadir. Zero kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga nisbatan qilingan har qanday razolat jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetkazadi.

Jamiyat taraqqiyoti axloqiy qadriyatlar va insonparvarlik tamoyillariga tayanadi. Agar shu qadriyatlarga raxna solinsa, bu jamiyat

## BOLALARGA QARSHI ZO'RVONLIK – jamiyatga qarshi jinoyat



barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bolalarni asrash, ularni himoya qilish o'miga, ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning ko'payishi – bu jiddiy ogohlantiruv signali hisoblanadi. Demak, bu muammoga nisbatan ta'sirchan va qat'iy choralar ko'rish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz tomonidan so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martda qabul qilingan farmoni bu boradagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu hujjatda voyaga yetmaganlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik uchun

javobgarlikni kuchaytirish, bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish va bu sohada davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Farmonga muvofiq, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar va shu turdagi huquqbuzarliklar uchun jazo choralari yanada qat'iylashtirildi. Xususan, bunday jinoyatlarni avval sodir etgan shaxslar tomonidan takroran amalga oshirilganda, ularga nisbatan uzoq muddatli yoki hatto umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi belgilandi. Bu esa jinoyatning oldini olish, aybdorlarning jazodan qochib qutulish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur toifadagi jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni faqat prokuratura organlari tomonidan amalga oshirish tartibi joriy etildi. Bu qaror bejiz qabul qilinmagan. Chunki prokuratura organlari davlatning eng ishonchli va mas'ul tuzilmalaridan biri sifatida bunday nozik masalalarda xolislik va adolatni ta'minlashga qodir. Ushbu vakolatni markazlashtirish orqali jinoyatlarning xolis va puxta o'rganilishi, aybdorlarning muqarrar jazoga tortilishi ta'minlanadi.

Albatta, qonunlarning qabul qilinishi muammoning yechimi emas, balki uni hal etish yo'lidagi muhim qadamdir. Eng asosiysi, ushbu normalarning amalga qanday ishlashi, jamiyatda qanday natija berishi bilan o'lchanadi. Bu esa nafaqat davlat organlari, balki har bir ota-ona, har bir fuqaroning mas'uliyatini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti va davlat ravnaqi bevosita kelajak avlodning qanday tarbiya topishiga bog'liq. Bolalarga nisbatan har qanday zo'rvonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish – barchamizning burchimiz. Zero sog'lom va baxtli bolalar barqaror va taraqqiy etgan jamiyatning eng muhim kafolatidir.

**Bekjon TOJIYEV,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

## Kelajagimiz bunyodkorlari

### VATANPARVARLIK TADBIRLARI

“Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida hamda “Amir Temur oyligi” doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Maktabgacha va maktab ta'limi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikda poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 337- va 348-sonli maktablarda vatanparvarlik tadbirlari o'tkazildi.

Tadbirlar ona Vatanimiz ramzi – davlatimiz madhiyasini jo'r bo'lib jonli ijro etishdan boshlandi. Dastlab, ochiq muloqotlar o'tkazilib, so'z olganlar Yangi O'zbekistonda yaratilgan ulkan imkoniyat va imtiyozlar, buyuk xalqimizning boy ma'naviy merosi, ulug' ajdodlarimiz, jumladan Amir Temur bobomizning yuksak tafakkur va harbiy salohiyati, el-yurt farovonligi, ilm-ma'rifat va madaniyat ravnaqi yo'lidagi bemisl hissasini e'tirof etishdi.

Yosh avlod kamolotida ajdodlar xotirasiga ehtirom, tinchlik, oila, mahalla va maktabning o'rni, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy kafolatlar haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Harbiy orkestrning Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovul va harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari, maxsus texnika va harbiy aslahalar namoyishi o'quvchi-yoshlardagi vatanparvarlik tuyg'usini, harbiylikka bo'lgan ishtiyoqni jo'shqinlantirdi.

**Adliya mayori Begali XURRAMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi katta yordamchisi

## Jarayon

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent viloyatining olis hududida joylashgan, xususan Ohangaron tumanidagi 22-sonli maktabda tuman mas'ullari ishtirokida o'rganishlar olib borildi.

### O'RGANISHLAR OLIB BORILDI

Jarayonda ta'lim maskanidagi sharoitlar, sinxonalar, shu jumladan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv xonasining belgilangan talablar doirasida jihozlanishi, sport bilan shug'ullanish va bu boradagi to'garaklar uchun yaratilgan qulayliklar ko'zdan kechirildi.

O'quvchilarning fan olimpiadalari va boshqa tanlovlardagi, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlariga doir tahlillar, shuningdek o'quvchi-yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, qonunga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlar natijalariga e'tibor qaratildi.

Yakunda mutasaddilarga tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berib o'tildi.

**Adliya polkovnigi Odil O'SAROV,**  
Toshkent harbiy prokurori

## “Ma'naviyat kuni”

### MULOHAZALAR ALMASHILDI

“Ma'naviyat kuni” doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida navbatdagi ma'rifat soati o'tkazildi.

Unda markaziy studiyadan mahkama va joylardagi studiyalardan hududiy harbiy prokuraturalar, shu jumladan Navoiy harbiy prokuraturasi xodimlari ishtirok etdi.

Videokonferens-aloqa shaklida o'tgan muloqotda, dastlab Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi bo'lim boshlig'i E. Ziyayevning hozirgi axborot asrida muhim hisoblangan “Shaxsga doir ma'lumotlar himoyasini ta'minlash masalalari” mavzusidagi ma'ruzasi tinglandi.

Jarayonda mavzu doirasida fikr-mulohazalar almashildi.

Shuningdek, jamiyatda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasidagi faoliyatda e'tibor qaratiladigan masalalar, bundan tashqari, hafta davomida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari haqida mas'ul xodimlar tomonidan ma'lumotlar berib o'tildi.

**Adliya polkovnigi Jo'rabek O'RINOV,**  
Navoiy harbiy prokurori

## “Yashil makon”

Yurtimizda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi xayriy tadbirlarda harbiy prokuratura organlari xodimlari ham faol ishtirok etmoqda.

### EKOLOGIK MADANIYAT

Shunday ekologik tadbirlarning navbatdagi O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Toshkent va Chirchiq harbiy prokuraturalari xodimlari hamda Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari ishtirokida Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida tashkil etildi.

Jarayonda Beshtut mahallasi hududidan ajratilgan 3 gektardan ortiq maydonda mingdan ziyod mevali va manzarali ko'chat ekildi.

Bu kabi tadbirlar ekologiyani yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish, shuningdek aholining, xususan yoshlarning tabiatga bo'lgan daxldorlik hissini oshirish, o'simlik va hayvonot dunyosiga mehr-muhabbatini kuchaytirish hamda ekologik madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Adliya kapitani Nurmuhammad NORALIYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim katta harbiy prokurori

Ertamiz egalari



## FARG'ONALIK YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

“Yoshlar kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 550 nafar farg‘onalik yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Sharqiy harbiy okrugining ma‘naviyat va ma‘rifat markazida o‘tkazilgan tadbir H. Botirov yig‘ilganlarga “Vatanparvar” tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot berdi. Namoyish etilgan mavzuga doir videorolik va infografikalar yoshlarda tashkilot faoliyati haqida yanada

ko‘proq tasavvur hosil bo‘lishi uchun xizmat qildi.

Tashkilot o‘quv muassasalarida yoshlar haydovchilik kasbidan tashqari vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektr kasblarini ham egallashlari, shuningdek “Avtokross”, “Motokross”, “Karting”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Raketamodel”, “Aviamodel”, “Kemamodel”, “Radiosport” kabi seksiyalarda shug‘ullanishlari mumkinligi aytib

o‘tildi. Muloqot davomida yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi. Ularga kelgusida sport bilan shug‘ullanishlari va kasb-hunar egallashlari bo‘yicha zarur tavsiyalar berildi.

Ochiq muloqot qizg‘in savol-javoblar bilan o‘tdi. E‘tiborlisi, tadbirga ishtirok etgan o‘quvchilar hamda talabalar tashkilotning o‘quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug‘ullanish istagini bildirdi.

Tadbir doirasida “Vatanparvar” tashkiloti rahbari Farg‘ona viloyati kengashi tasarrufidagi o‘quv muassasalariga 16 ta yangi “Chevrolet Onix” avtomobilini topshirdi. Endilikda ushbu o‘quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida “B” toifasi bo‘yicha tahsil olayotgan fuqarolar amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadilar.

“Avtokross”, “Motokross”, “Karting”, “Biatlon”, “Duatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Aviamodel”, “Raketamodel” va “Kemamodel” sport seksiyalarining ko‘rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Hamkorlik

## ISTIQBOLLI MASALALAR MUHOKAMASI



Slovakiya Respublikasining ish beruvchi kompaniyalari vakillaridan iborat delegatsiya “Vatanparvar” tashkiloti Toshkent shahri Sportning texnik va amaliy turlari markaziga tashrif buyurdi.

Xorijlik mutaxassislar “Vatanparvar” tashkiloti o‘quv muassasalarida turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza, o‘quv dasturlari va haydovchilik kasbini o‘rgatishga mo‘ljallangan innovatsion texnologiyalar bilan tanishdi. Shuningdek, tashkilotning poytaxtimizdagi o‘quv muassasalarida haydovchilik kasbiga o‘qitilayotgan fuqarolarning o‘quv avtodromida amaliy mashg‘ulot o‘tash jarayoniga guvoh bo‘ldilar.

– Hozirda mamlakatimizda haydovchilarga nisbatan talab tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, yarim tirkamali, ya‘ni “CE” toifadagi yuk transporti vositalarining boshqaruvchilari bizga juda kerak. Men ish yuzasidan ko‘p davlatlarda bo‘lganman. Lekin “Vatanparvar” tashkilotining haydovchilarni tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv muassasalari, avtodromlari, zamonaviy avtomobillari, umuman olganda, ulkan tajribasi menda katta taassurot qoldirdi”, – dedi delegatsiya rahbari Oleg Zaboti.

Tomonlar o‘rtasida xorijda vaqtincha ishlash istagida bo‘lgan o‘zbekistonlik fuqarolarni haydovchilik kasbiga tayyorlab, Slovakiyaga yuborish masalalari muhokama qilindi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda haydovchilar rus tilida muloqot qilishni bilishlari hamda “Kod 95” va “ADR” sertifikatlariga ega bo‘lishi lozimligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston chempionati



## ENG MOHIR YOSH merganlar bahsi

Samarqand shahrida “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan yoshlar o‘rtasida sportning pnevmatik quroldan o‘q otish turi bo‘yicha O‘zbekiston chempionati musobaqasi o‘tkazildi.

Mazkur bellashuvda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 84 nafar sportchi 10 metrlik masofadan pnevmatik miltiq va pistoletlardan nishonga o‘q uzdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

**Miltiqdan o‘q otish bo‘yicha “VP-6” sinfida, o‘g‘il bolalar o‘rtasida:**

**1-o‘rin:** Otabek Ramatullayev (Toshkent v.);

**2-o‘rin:** E‘zozbek Rahimjonov (Namangan v.);

**3-o‘rin:** Ilnur Yamalov (Andijon v.).

**Qizlar o‘rtasida:**

**1-o‘rin:** Durдона Mavlonova (Namangan v.);

**2-o‘rin:** Amalya Yuldasheva (Andijon v.);

**3-o‘rin:** Sogdiana Bugrova (Andijon v.).

**Pistoletdan o‘q otish bo‘yicha “PP-3” sinfida, o‘g‘il bolalar o‘rtasida:**

**1-o‘rin:** Salohiddin G‘ofurov (Toshkent v.);

**2-o‘rin:** Ruslan Majidov (Toshkent sh.);

**3-o‘rin:** Mehrobiddin Mirzajonov (Toshkent v.).

**Qizlar o‘rtasida:**

**1-o‘rin:** Dinora Axmatova (Namangan v.);

**2-o‘rin:** Irina Tarasova (Namangan v.);

**3-o‘rin:** Durдона Ilhomjonova (Toshkent v.).

**Jamoa hisobida:**

**1-o‘rin:** Toshkent viloyati;

**2-o‘rin:** Namangan viloyati;

**3-o‘rin:** Andijon viloyati jamoalari.

G‘olib va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va sovg‘alari bilan taqdirlandi.



Botir ruh

# Amir Temur

## DAVRIDA HARBIY MUSIQA



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

**Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur davri harbiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning yuksak bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu davrda davlat boshqaruvi, harbiy tizim va san'at sohalari o'zaro uyg'un holda rivojlangan. Ayniqsa, harbiy musiqa va harbiy orkestrlar davlat qudratini namoyon etuvchi muhim omillardan biri bo'lgan.**

Harbiy musiqachilar nafaqat janglarda, balki davlat marosimlari, yurishlar va g'alaba tantanalarda ham faol ishtirok etgan. Ularning vazifasi ruhiy ta'sir ko'rsatish, intizomni ta'minlash va harbiy harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo'lgan.

Amir Temur davlatni markazlashgan va kuchli harbiy tizimga asoslangan holda boshqargan. Uning "Temur tuzuklari"da harbiy intizom, tartib va ma'naviy tarbiyaga katta e'tibor berilgan.

Harbiy yurishlarda nafaqat qurol-yarog', balki ma'naviy ta'sir vositalari ham muhim hisoblangan. Shu jihatdan musiqa alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki musiqa askarlarni ruhlantiradi, jang oldidan qo'rquvni kamaytiradi, g'alaba hissini kuchaytiradi.

Harbiy musiqachilar an'anasi Markaziy Osiyoda Amir Temurdan oldin ham mavjud bo'lgan. Lekin aynan uning davrida bu tizim yuqori darajada tashkil etildi va davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Temur qo'shinlarida maxsus musiqachilar guruhlari shakllangan

bo'lib, ular: karnaychilar, surnaychilar, nog'orachilar, doirachilar kabi ijrochilardan tashkil topgan bu musiqachilar harbiy qismlar tarkibiga kiritilgan va aniq vazifalarga ega bo'lgan.

Harbiy musiqaning eng muhim vazifalaridan biri – signal berish bo'lgan: hujum boshlanishi, orqaga chekinish, saflanish, g'alaba e'loni kabi buyruqlar karnay va nog'ora tovushlari orqali qo'shinlarga yetkazilgan.

Harbiy musiqa davlat qudrati va shon-sharafini ifodalagan. Temuriylar saroyida musiqachilar yuqori maqomga ega bo'lgan.

Temur qo'shinlarida harbiy musiqachilar alohida guruh sifatida tashkil etilgan. Jang vaqtida musiqa qo'shinlarni birlashtirgan, harakatni muvofiqlashtirgan, dushmanga psixologik bosim o'tkazgan, ayniqsa hujum paytida baland karnay va nog'ora tovushlari jang maydonida kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Harbiy musiqachilar faqat janglarda emas, balki marosim va tantanalarda, g'alaba paradlari, elchilarni kutib olish, davlat

bayramlari kabi tadbirlarda ham ishtirok etgan. Bu holat harbiy musiqaning madaniy ahamiyatini oshirgan.

Amir Temur va uning vorislari davrida musiqa san'ati yuqori darajada rivojlangan. Harbiy musiqa esa umumiy musiqiy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Bu davrda ijro uslublari takomillashgan, asboblar takomillashtirilgan, musiqachilarning maqomi oshgan.

Harbiy musiqachilar jamiyatda hurmatga sazovor bo'lgan. Ular davlat xizmatida bo'lgan, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, saroyga yaqin tabaqaga mansub bo'lgan.

Amir Temur davridagi harbiy musiqa an'analari bugungi kunda ham davom etmoqda. Zamonaviy harbiy orkestrlar signal berish, marsh ijro etish, tantanalarda qatnashish kabi vazifalarni bajaradi. Bu esa Temuriylar davrida shakllangan an'analarning davomiyligini ko'rsatadi.

Amir Temur davrida harbiy musiqachilar davlat va armiya tizimining muhim qismi bo'lgan. Ular janglarda muhim rol o'ynagan, askarlarni ruhlantirgan, davlat qudratini namoyon etgan. Bu an'analar bugungi kunda ham harbiy orkestrlar faoliyatida o'z aksini topmoqda.

**Mayor Jo'rabek NAZAROV,  
Chirchiq garnizoni  
ma'naviyat va ma'rifat  
markazi harbiy orkestr boshlig'i**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

## VATANPARVAR



### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

**Navbatchi:** kapitan Bobur Elmurodov

**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva

**Musahhih:** Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6111

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 878 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan  
tahririyati bilan bog'lanish  
uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)

[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)

[vatanparvar-bt@umail.uz](mailto:vatanparvar-bt@umail.uz)

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

[www.youtube.com/c/UzArmiya](https://www.youtube.com/c/UzArmiya)